

Conferences

MEDIA-CA.COM

**MEDIA VA SUN'IY
INTELLEKT
INTEGRATSIYASINING
ILMIY ASOSLARI VA
ZAMONAVIY
MUAMMOLARI**

XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI

MEDIADIZAYN KAFEDRASI

15.01.2026

O'ZBEKISTON JURNALISTIKA VA
OMMAVIY KOMMUNIKATSIYALAR
UNIVERSITETI

MEDIA VA SUN'IY INTELLEKT INTEGRATSIYASINING ILMIY ASOSLARI VA ZAMONAVIY MUAMMOLARI

XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

PR va menejment fakulteti

Mediadizayn kafedrası



<https://doi.org/10.62499/ijmcc.vi.294>

Tahririyat:

Anton Antonov-Ovseenko, Abduxalim Abduxalilov, Nigina Turgunova

Toshkent – 2026



Kirish so'zi

Assalomu alaykum, qadrlı do'stlar, aziz hamkasblar va hurmatli talabalar!

Bugun siz bilan yana bir muhim uchrashuvda yig'ilib turganimizdan xursandmiz!

Sizlarni "Media va sun'iy intellekt integratsiyasining ilmiy asoslari va zamonaviy muammolari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda samimiy qutlab, barchangizga ilmiy izlanishlarga boy va samarali muloqot tilayman. Bugungi anjuman axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, media tizimi va sun'iy intellektning o'zaro uyg'unlashuvi jarayonlarini chuqur ilmiy tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, u zamonaviy jamiyatning axborot arxitekturası qanday shakllanayotganini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Media va sun'iy intellekt integratsiyasi – bu xavf ham, imkoniyat ham, mas'uliyat hamdir. Konferensiyamizning vazifasi sun'iy intellektni axborotni boshqaruvchi kuchga emas, jamiyatga xizmat qiluvchi ilmiy vositaga aylantirishdir.

Bugungi kunda sun'iy intellekt algoritmlari: mashinaviy o'rganish, chuqur neyron tarmoqlar, tabiiy tilni qayta ishlash va kompyuter ko'rishi texnologiyalari, media industriyasining deyarli barcha bosqichlariga faol joriy etilmoqda. Axborot ishlab chiqarish, uni qayta ishlash, tahlil qilish, filtrlash, tahrirlash, tarqatish va auditoriyaga yetkazish jarayonlarida sun'iy intellektning o'rni tobora ortib, jurnalistika, reklama, kontent yaratuvchanligi va axborot xavfsizligi kabi yo'nalishlarda tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda hamda auditoriya bilan interaktiv muloqot o'rnatishgacha bo'lgan jarayonlar tobora ko'proq avtomatlashtirilmoqda. Bu esa media tizimini ma'lumotlarga asoslangan, tezkor va shaxsiylashtirilgan kommunikatsiya makoniga aylantirmoqda.

Sun'iy intellektning media sohasiga chuqur kirib borishi Deepfake, sun'iy generatsiya qilingan matn va tasvirlar real voqelik bilan farqlanmay qolayotganligi, axborot oqimini algoritmlar boshqari jamoatchilik fikrining sun'iy yo'naltirilishiga olib kelishi mumkinligi, Sun'iy intellekt yaratgan kontent uchun kim javobgar, dasturchimi, platformami yoki foydalanuvchimi degan savollar, agar media sun'iy intellektga to'liq bog'lanib qolsa, mustaqil tahririy siyosat xavf ostida qolishi mumkin kabi bir qator fundamental muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Mazkur anjuman doirasida biz sun'iy intellektning mediaga ta'sirini ilmiy modellar, empirik tadqiqotlar va xalqaro tajribalar asosida tahlil qilishni, shuningdek, axborot xavfsizligi, algoritmik shaffoflik, media savodxonligi va etik me'yorlarni shakllantirish bo'yicha muhim xulosalarga kelishni maqsad qilganmiz. Bugungi ilmiy maruzalar media makonining barqaror va mas'uliyatli rivoji uchun zarur bo'lgan strategiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Ishonchim komilki, bugungi anjumandagi ma'ruzalar, ilmiy bahslar va xalqaro tajriba almashuvi media va sun'iy intellekt integratsiyasining kelajak yo'nalishlarini belgilab beradi hamda ushbu sohada yangi ilmiy maktablar va innovatsion g'oyalarning shakllanishiga xizmat qiladi

Qudratxo'ja Sherzodxon Tajiddinovich — Milliy media birlashmasi raisi,
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti rektori,
O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist

Axmedova Malika

Интеллектуальные технологии анализа медиаконтента как инструмент противодействия экстремистским нарративам

Ataboyeva Hojarbibi

Inson va sun'iy intellekt yaratgan mediamatnlarning pragmatik tahlili

Abdulkarimova Maftuna

Zamonaviy media iste'molchilari uchun material tayyorlashda tahririyat faoliyatiga sun'iy intellekt vositalarini integratsiya qilish

Boymurodov Bobir

Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarini ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish

Djumanova Sanobar

AI gallyutsinatsiyani bartaraf etish mumkinmi?

Davlatova Nafosat

Siyosiy teledebatlar va sun'iy intellekt: elektoral muloqotda raqamli etika muammolari

Ismailova Saodat

Visual and interactive capabilities of 3d modeling in artificial intelligence systems

Kayumova Gulshan

Fractal methodology of the educator's personal and professional self-development

Kurbanov Sultanboy

Ta'lim texnologiyalarining o'quv-metodik ta'minotini rivojlantirishga zamonaviy yondashuvlar

Muratova Nozima

Media sohasida sun'iy intellekt asosidagi texnologiyalarning amaliy qo'llanilishi va rivojlanish tendensiyalari

Mullajonov Baxodirjon

Sun'iy intellekt va kreativ texnologiyalarning zamonaviy ta'limdagi roli: etik va ijtimoiy yondashuv

Muxtoriddinov Muhammadyusuf

Sun'iy intellekt va o'qituvchining pedagogik faoliyati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik

Nortoyeva Durdona

The importance of artificial intelligence and neural networks in modern information systems

Raximov Shohruh

Axborot texnologiyalari fanlarini o'qitishda generativ sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanishning o'ziga xosliklari: afzalliklari va xavf-xatarlari

Rasmuxamedova Firusa

Роль искусственного интеллекта в повышении инклюзивности образования и медиа-пространства в Узбекистане

Tashmukamedova Diloram

Цифровые трансформации в Узбекистане: медиа, искусственный интеллект и буллинг как факторы риска ментального здоровья молодежи

Yigitaliyev Bobur

The role of artificial intelligence in the transformation of educational methodologies: from traditional learning to adaptive models

Yoqubova Shahzoda

Zamonaviy siyosiy modernizatsiya sharoitida media va sun'iy intellekt: imkoniyatlar, xavflar va istiqbollari

ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ АНАЛИЗА МЕДИАКОНТЕНТА КАК ИНСТРУМЕНТ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ ЭКСТРЕМИСТСКИМ НАРРАТИВАМ

Малика Ахмедова, 

Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана

Аннотация: В статье анализируются возможности применения интеллектуальных технологий исследования медиаконтента для выявления и ограничения распространения экстремистских нарративов в условиях цифровой трансформации медиасреды. Используются методы контент- и дискурс-анализа, а также инструменты компьютерной лингвистики и алгоритмы машинного обучения. Обосновывается потенциал ИИ-инструментов в системе профилактики радикализации, обеспечения медиабезопасности и повышения эффективности информационного противодействия.

Ключевые слова: экстремизм, искусственный интеллект, медиаконтент, медиабезопасность, радикализация, медиадискурс, профилактика.

В рамках интенсивной цифровой трансформации градиент медиасреды перестаёт быть лишь природным каналом перевода информации и превращается в целый социализированный опорный институт, системно воздействующий на становление общественного сознания, общественно значимых ориентиров и моделей поведения. Возрастание продолженных цифровых общений, с одной стороны, провоцирует демократичный доступ к информации, с другой создает комфортные условия для распространения деструктивных нарративов, включая экстремистские интерпретации социокультурной реальности.

Цифровое медиапространство показывает высокую адаптивность к экстремистскому дискурсу, перерабатывая примитивные формы в гибрид, интегрированный в повседневные информационные потоки, маскированный под социально ориентированную критику, культурный или интеркультуральный диалог.

Таким образом, трансформация переводного знака радикализации существенно усложняет действующие процессы идентификации, аналитической интерпретации и последующей нейтрализации радикализирующего контента.

Подавляющее количество традиционных инструментов мониторинга, опирающихся на экспертное заявление и ручную обработку медиаконтента, неспособны к объективным учитывать динамику цифровых коммуникаций. Сегментированные данные, скорость и старт ее циркуляции, мультимодальность информационных изделий требуют технологически продвинутых аналитических решений. В этом контексте также актуализируется значение интеллектуальных технологий медиа-анализа на основе инструментов и шаблонов искусственного интеллекта, алгоритмов машинного изучения и методов информатики.

Применение интеллектуальных средств позволяют обнаруживать не только фронтмены экстремистской риторики, но и латентные семантические конструкции, когнитивные соединения и механизмы экспозиции для аудитории. Это принципиально расширяет профилактический потенциал медиасистемы, трансформируя её из пассивного ретранслятора информации в активный субъект формирования устойчивости общества к радикализирующим идеологиям.

Цель исследования — оценить возможности интеллектуальных технологий в выявлении экстремистских нарративов в средствах массовой информации и противодействии им, а также классифицировать их роль в предотвращении радикализации и терроризма. Научная новизна заключается в анализе конвергенции инструментов искусственного интеллекта и медиа-стратегий борьбы с терроризмом с позиций теорий медиакommunikации и современных парадигм информационной безопасности. Практическая ценность результатов исследования определяется возможностью их внедрения в работу средств массовой информации, аналитических центров и государственных учреждений, участвующих в профилактических программах.

Эмпирическое исследование проводилось на материалах цифрового медиапространства, включая онлайн-новости, посты в социальных сетях, мультимедийные формы и т.д. в условиях высоких темпов информационных потоков. Исследование касалось содержания национальных информационных агентств, блогосферы, комментариев пользователей, а

также учебных и аналитических статей по использованию интеллектуальных технологий в узбекской медиасреде.

Методологически исследование основано на междисциплинарном подходе, сочетающем аналитические инструменты медиалогического анализа, теорию коммуникации и практику использования технологий искусственного интеллекта. Контент-анализ был использован для количественной и качественной категоризации сообщений СМИ с целью выявления особенностей экстремистской риторики и коммуникационных стратегий, а также семантических паттернов, что способствовало выявлению устойчивых нарративных конструкций, характерных для радикальной коммуникации (Wodak, 2009).

Дискурс-анализ сосредоточен на анализе коммуникативных функций экстремистских сообщений, отношений между лексическими единицами, контекстуальных аспектов и идеологического измерения дискурса, чтобы лучше определить прагматическую организацию радикализирующих нарративов (Entman, 2004). Одно из направлений исследований касалось применения интеллектуальных методов для анализа медиаконтента: инструментов обработки естественного языка, алгоритмов машинного обучения и систем сетевого анализа. Их использование привело к автоматизированному обнаружению лексических, семантических и прагматических маркеров деструктивного контента в больших массивах данных и заметно повысило оперативность аналитической работы по сравнению с традиционными подходами (Rogers, 2013; Brantingham & Brantingham, 2017).

Анализ местного контекста стал важным вопросом. В контексте институционального развития журналистики в Узбекистане появляется возможность практического применения инструментов искусственного интеллекта в журналистике. Например, на базе Фонда средств массовой информации совместно с Министерством цифровых технологий была организована серия специализированных семинаров для журналистов по автоматизированной обработке текстовых, аудио- и видеоматериалов, а также по технологиям проверки фактов (Massmedia.uz). Ярким примером является внедрение AI-journalist в Узбекском национальном информационном агентстве uzA, которое иллюстрирует переход к автоматизации определенных этапов производства новостного контента (gazeta.uz). Кроме того, в Ташкенте был проведен специализированный тренинг по применению технологий искусственного интеллекта в современной медиа-среде.

Эмпирическая обработка основывалась на сочетании автоматизированных инструментов и экспертной интерпретации. Такой подход позволил обеспечить баланс между технологической точностью анализа и качественным пониманием коммуникативной специфики экстремистских нарративов.

Результаты исследования свидетельствуют о том, что в цифровом медиaprостранстве существует устойчивая система экстремистских нарративов. Они направлены на эмоциональную мобилизацию аудитории, упрощенную интерпретацию социальной реальности и постепенную трансформацию ценностных ориентаций. Наиболее распространенными были бинарные конструкции “мы” и “они”, риторика социальной несправедливости, коллективной виктимизации, конспирологические объяснительные механизмы и апелляции к религии и этнокультурной идентичности.

Что особенно бросается в глаза, так это тенденция к увеличению латентности. Прямая радикальная риторика все чаще дополняется скрытым воздействием — метафоризацией, символической эмоционализацией, псевдологической аргументацией, что затрудняет обнаружение деструктивного контента традиционными средствами мониторинга (Vorum, 2011; Schmid, 2011).

Выявленные нарративные структуры формируют устойчивые фреймы интерпретации социальной реальности, влияя на когнитивные и поведенческие установки аудитории и создавая предпосылки для постепенной радикализации отдельных групп. Как отмечает Р. Энтман, именно фрейминг выступает ключевым механизмом медийного воздействия, что подтверждается результатами настоящего исследования (Entman, 2004). В этом контексте значимым является и вывод Г. Г. Почепцова о том, что современные информационные конфликты разворачиваются преимущественно на уровне нарративов, где решающую роль играет интерпретационная рамка сообщения (Почепцов, 2015).

Применение интеллектуальных технологий анализа медиаконтента позволило получить качественно иные результаты по сравнению с ручной экспертной обработкой. Ис-

пользование инструментов обработки естественного языка и машинного обучения обеспечило выявление как явных, так и скрытых семантических паттернов радикализирующего содержания. Эти результаты согласуются с выводами Р. Роджерса о потенциале цифровых методов анализа в исследовании медиадискурса (Rogers, 2013).

Дополнительный аналитический эффект обеспечил анализ сетевой структуры распространения экстремистского контента, подтвердивший его сетевую природу: устойчивость радикальных коммуникаций определяется механизмами координации, репликации и взаимного усиления сообщений в цифровой среде (Aly et al., 2017). Радикализация в этих условиях носит кумулятивный характер, формируясь через многократную экспозицию согласованных нарративов. Алгоритмы машинного обучения продемонстрировали высокую эффективность в классификации медиаконтента по уровням потенциальной деструктивности, что создаёт предпосылки для перехода от реактивного реагирования к проактивной профилактической модели.

Анализ визуального и мультимедийного контента показал, что экстремистская пропаганда стремится с помощью символических образов, идентификационных маркеров и эмоционально заряженных визуальных кодов усилить идеологическое воздействие на воспринимаемое аудиогруппу. Визуальный компонент выполняет структурообразующую функцию, закрепляя смысловые конструкции и повышая вовлеченность зрителей. Все свидетельствует о том, что текстовые, визуальные и сетевые компоненты функционируют в связке в экстремистской коммуникации.

Умные методы анализа медиаконтента являются стратегическим инструментом противодействия радикализации. Их интеграция в медиaprактики позволяет для проведения системного мониторинга, выявления латентных семантических паттернов и повышения оперативной своевременности по нейтрализации экстремистских нарративов media literacy и presenter literacy обоими компонентами предмет-нучения нарративы. В то же время СМИ продолжают играть ключевую роль, как в институциональном обеспечении формирования общественного информационного иммунитета, так и в конструировании альтернативных модельных ценностных систем.

Исследование подтвердило необходимость технологического усиления традиционных методов мониторинга в условиях цифровизации медиасферы. Внедрение инструментов искусственного интеллекта и компьютерной лингвистики позволяет сместить акцент на превентивную модель противодействия экстремизму. Научная новизна работы связана с комплексным осмыслением роли интеллектуальных технологий в системе медиакommunikации и информационной безопасности, а практическая значимость — с возможностью внедрения полученных выводов в деятельность СМИ, аналитических центров и государственных структур.

Список литературы:

Aly, A., Macdonald, S., Jarvis, L., & Chen, T. M. (2017). *Violent extremism online: New perspectives on terrorism and the Internet*. Routledge.

Borum, R. (2011). Radicalization into violent extremism I: A review of social science theories. *Journal of Strategic Security*, 4(4), 7–36.

Brantingham, P. J., & Brantingham, P. L. (2017). Artificial intelligence and predictive analytics in security studies. *Security Journal*, 30(2), 457–473.

Entman, R. M. (2004). *Projections of power: Framing news, public opinion, and U.S. foreign policy*. University of Chicago Press.

Rogers, R. (2013). *Digital methods*. MIT Press.

Schmid, A. P. (2011). *The Routledge handbook of terrorism research*. Routledge.

Wodak, R. (2009). *The discourse of politics in action: Politics as usual*. Palgrave Macmillan.

Почепцов, Г. Г. (2015). *Информационные войны. Новый инструмент политики. Манипуляция сознанием*. Москва: Эксмо; Алгоритм.

Об авторе:

Ахмедова Малика Мухаммадовна – доцент, доктор философии по филологическим наукам (PhD), докторант (DSc) Университета журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана, axmedovamalika13@gmail.com

INTELLIGENT MEDIA CONTENT ANALYSIS TECHNOLOGIES AS A TOOL FOR COUNTERING EXTREMIST NARRATIVES

Malika Akhmedova,
University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan

Abstract: The article explores the use of intelligent media content analysis technologies to identify and counter extremist narratives in the context of digital media transformation. The study applies content and discourse analysis, computational linguistics, and machine learning methods. The potential of AI tools in radicalization prevention, media security, and information counteraction is substantiated.

Keywords: extremism, artificial intelligence, media content, media security, radicalization, media discourse, prevention.

About the author:

Akhmedova Malika Mukhammadovna – Associate Professor, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Doctoral Researcher (DSc) of University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, axmedovamalika13@gmail.com

INSON VA SUN'YI INTELLEKT YARATGAN MEDIAMATNLARNING PRAGMATIK TAHLILI

Hojarbibi Ataboyeva,
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan media matnlarning pragmatik xususiyatlarini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqot doirasida sun'iy intellekt asosida shakllangan yangilik sarlavhalari pragmatik yondashuv asosida o'rganildi. Tahlil jarayonida nutq aktlari nazariyasi va semantik-pragmatik metodlardan foydalanilib, sun'iy intellekt tilini pragmatik tadqiqotning mustaqil obyekti sifatida qarash zarurligi asoslandi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, kontekstual ma'no, nutq aktlari, sarlavha, kommunikativ niyat, pragmatik tahlil, illokutiv niyat.

So'nggi yillarda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari yaratgan mediamatnlar OAV sohasida katta o'zgarishlar yaratdi. ChatGPT va shunga o'xshagan boshqa SI modellar foydalanuvchilarni mantiqan izchil, mazmunan dolzarb va kontekstga mos matnlar bilan hayratga solmoqda. Sun'iy intellektning mediamatnlariga kirib kelishi hamda yangilik sarlavhalari, qisqa postlar va reklama matnlari kabi sohalarda keng qo'llanilishi, pragmatik tadqiqotlar uchun yangi ob'yektlarni yaratmoqda. Eng so'nggi Qiu va boshqalar (2023) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotdan tashqari, SI ning pragmatik samaradorligi yoki pragmatik kompetensiyasi hali tizimli ravishda o'rganilmagan.

Bugungi kunda sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan media matnlarning pragmatik xususiyatlarini o'rganish bugungi kunda ilmiy jihatdan muhim va dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – SI tomonidan yaratilgan yangilik sarlavhalari, qisqa media postlar va reklama matnlaridagi pragmatik birliklarni tahlil qilish, ularning kommunikativ yo'naltirilganligini va nutq aktlari xususiyatlarini aniqlashdir. Tadqiqot natijalari nafaqat SI tilining pragmatik kompetensiyasini tushunishga, balki media pragmatikasi va sun'iy intellekt lingvistikasi sohasida kelgusidagi izlanishlar uchun nazariy va amaliy asos yaratishga xizmat qiladi.

Kommunikatsiya bilan bog'liq jarayonlar va ularni Pragmatik baholashda L. Austin (1962) nutq aktlari nazariyasini ishlab chiqib, nutqning faqat lug'aviy ma'noga ega emas, balki amalga oshiruvchi (illokutiv) funksiyaga ega ekanini ko'rsatdi. U so'zlar orqali faqat ma'no uzatib qolmasdan, harakatlar bajarish mumkinligini ta'kidladi, ya'ni "so'z bilan ish qilamiz" g'oyasini ilgari surdi. Searle (1969) Austinning nazariyasini rivojlantirib, nutq aktlarini assertiv, direktiv, komissiv, ekspressiv va deklarativ kabi toifalarga ajratdi va ularni ijtimoiy kontekst bilan bog'lab tushuntirdi. Bu ish nutq aktlarini tizimli ravishda tahlil qilish va mediamatnlarda kommunikativ niyatni aniqlash uchun asos yaratadi. Levinson (1983) esa pragmatikani kengaytirib, kontekstual ma'no va implikaturani tizimli ravishda o'rganishga asos soldi. U nutqdagi yashirin ma'nolar, presuppozitsiya va auditoriya bilimi orqali kommunikativ xulosalar qanday hosil bo'lishini ko'rsatdi. Shu yondashuv media matnlar va sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan matnlarni pragmatik tahlil qilishda muhim ilmiy asos sifatida ishlatiladi.

Sun'iy intellekt matnlari ham inson nutqi kabi assertiv, direktiv va ekspressiv nutq aktlarini bajarishi mumkin (Chen, Li & Ye, 2024). Mediamatnlarda nutq aktlarining o'rni auditoriyani xulosa chiqarishga yoki harakatga yo'naltirishda seziladi. Pragmatika asosidagi nutq aktlarini tahlil qilish orqali SI kommunikativ kompetensiyasini aniqlash mumkin. Levinson (1983) ta'kidlaganidek, kontekstual va implitsit ma'no kommunikativ xulosalarni shakllantirishda muhim. Sun'iy intellekt matnlarida ham baholovchi va yashirin ma'nolar mavjud bo'lib, ular auditoriyaga ta'sir qiladi. (Herbold et al., 2023) Shu bilan SI matnlari faqat fakt uzatish bilan cheklanmay, kontekst va kommunikativ niyatni ham aks ettiradi.

Pragmatika tilshunoslikning mustaqil sohasi bo'lib, til birliklarining real kommunikativ vaziyatdagi qo'llanilishi, ya'ni nutq ishtirokchilarining niyati, kontekst va muloqot sharoiti bilan bog'liq holda yuzaga keladigan ma'nolarni o'rganadi. Ushbu yo'nalish semantikadan farqli ravishda, til birliklarining faqat lug'aviy yoki grammatik ma'nosini emas, balki ularning nutq jarayonida qanday kommunikativ funksiyani bajarishini tahlil qiladi.

An'anaviy pragmatik tadqiqotlar asosan inson nutqiga tayangan holda olib borilib, til egasining ijtimoiy va madaniy omillari muhim omil sifatida qaralgan. Zamonaviy kommunikativ

makonda esa pragmatika doirasi kengayib, sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan matnlarning ham kommunikativ va pragmatik xususiyatlarini tahlil qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Bilamizki, mediamatnlarda kommunikativ niyat va konteks o'ziga xos tarzda namoyon bo'lib, ular axborot yetkazish bilan birga auditoriyaga ma'lum ta'sir ko'rsatishni ham maqsad qiladi. Mediamatnlar muallifi axborotni tanlash, tartiblash va taqdim etish jarayonida baholovchi va implitsit (yashirin) ma'nolardan faol foydalanadi.

Pragmatikaning an'anaviy tadqiqot obyekti sifatida inson nutqi qaralib, til birliklarining ma'nosi nutq egasining kommunikativ niyati, ijtimoiy tajribasi va kontekst bilan uzviy bog'liqlikda tahlil qilib kelingan. Klassik pragmatik tadqiqotlar nutq aktlari, implikatura va presuppozitsiya kabi hodisalarni aynan inson tomonidan ongli ravishda amalga oshiriladigan kommunikativ faoliyat doirasida izohlab bergan. Bunda til egasining subyektiv pozitsiyasi, baholovchi munosabati va muloqot strategiyalari markaziy o'rin egallaydi.

SI matnlar ko'p hollarda yangilik sarlavhalari, ijtimoiy tarmoq postlari, reklama matnlari ko'rinishida bo'ladi. Ular assertiv va direktiv nutq aktlari orqali auditoriyani yo'naltiradi va pragmatik tahlil uchun boy ma'lumot beradi (Liao et al., 2023). Shu sababli sun'iy intellekt matnlari mustaqil tadqiqot obyekti sifatida qaralishi mumkin.

Bizning tadqiqotimizda Austin (1962) va Searle (1969) yondashuvi nutq aktlari va illokutiv niyatni tahlil qilishga imkon beradi, Levinson (1983) yondashuvi esa implitsit (yashirin ma'no) va kontekstual ma'nolarni aniqlashga yordam beradi. Birgalikda ular media matnlar va SI matnlarni pragmatik tahlil qilish uchun ilmiy asos yaratadi va inson fikri bilan sun'iy idrok o'rtasida qanchalik farqli yoki o'xshash tomonlar bor ekanligini o'rganish imkonini beradi.

Ushbu tadqiqotda sun'iy intellekt (SI) tomonidan yaratilgan media matnlarning pragmatik xususiyatlarini aniqlash va inson tomonidan yaratilgan matnlar bilan solishtirish maqsad qilindi. Tadqiqot obyekti sifatida yangilik sarlavhalari, ijtimoiy tarmoq gazetalarining onlayn nashri matnlari tanlandi, predmeti esa ularning nutq aktlari, baholovchi birliklari va implitsit ma'nolari bo'ldi.

Ma'lumotlar manbai sifatida ChatGPT va boshqa SI generatorlar orqali yaratilgan matnlar hamda real inson matnlari (gazeta va elektron nashrlari sarlavhalari) tahlil qilindi. Matnlar tanlashda uzunlik, janr va auditoriya yo'naltirilishi mezonlari asos bo'ldi.

Tadqiqot vazifasi solishtirma asosida, SI matnlari va inson matnlari bir-biriga qarshi qo'yilib, ularning pragmatik birliklari va kommunikativ xususiyatlari o'rganildi. Tahlil jarayoni quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi, ya'ni semantik-pragmatik xususiyatlarni aniqlash va natijalarni sifatli va statistik tahlil qilish.

Biz tahlilni "Kun-uz" elektron saytida berilgan axborot matnlarini olib, uni sun'iy intellektga soldik, yani, (SI) sen shu mavzuni qanday yoritgan bo'lar eding? -, deb so'radik, hamda natijada quyidagilarga erishdik.

"Sizni kuzatish uchun ruxsat so'rab o'tirishmaydi - bu qulaylikmi, qulikmi? Shaxsiy hayotingizni, sirlaringizni adolatli insonga ishonasizmi? Aytaylik, ijtimoiy tarmoqlar, sizdagi qurilmalar, foydalanaayotgan dasturlaringiz yaxshi odamlarning qo'lida deb o'ylaysizmi? Agar pardalar ortida "yomon amakilar" turgan bo'lsa-chi? Bugun biz "5 daqiqa"da Den Brauning "Raqamli qala" romani haqida gaplashamiz". (Kun – uz. 2026. Yanvar soni).

"Kun.uz" matnining xususiyatiga (inson yondashuvi)

1. Matn savol shaklida kirish bilan boshlanadi: "Sizni kuzatish uchun ruxsat so'rab o'tirishmaydi - bu qulaylikmi, qulikmi?"

2. Keyin auditoriyani o'ylashga chaqiradi: "Shaxsiy hayotingizni, sirlaringizni adolatli insonga ishonasizmi?"

3. Asosiy mavzu - Den Braun "Raqamli qala" romani orqali raqamli xavfsizlik va shaxsiy hayot mavzusi.

4. Yondashuv inson qiziqishini uyg'otishga qaratilgan, interaktiv, ijtimoiy tarmoqlar va texnologiyalarning xavfi haqida auditoriyada savol uyg'otadi.

Natijada, inson jurnalistlar tomonidan yozilgan emotsiya va dramatik ton, auditoriya bilan "dialog"ga urg'u beradi, lekin matn qisqacha va faktlarga kamroq tayanadi.

Sun'iy intellekt bergan yondashuv;

1. Aniq va strukturalangan bo'lardi;

1. Kirishda tez va tushunarli savol,

2. Asosiy qismda fakt + romandagi misollar,

3. Xulosa qismini tahliliy va reflektiv qilib berish,
1. Pragmatik tahlilga urg'u beriladi;
 - a. Har bir jumlada nutq aktlari (assertiv, direktiv, baholovchi) aniqlanadi
 - b. Implisit ma'no va kontekstual ifodalar ko'rsatiladi;

Emotsiyani kamaytirish, ilmiy uslub hamda Dramatik savollarni tahliliy savollarga aylantiraman: "Raqamli xavfsizlik borasida SI va inson matnlari qanday farq qiladi?" -, Matn faktlarga va tadqiqot manbalariga tayangan bo'ladi (romandagi voqealar + ilmiy izlanishlar).

Natija: Matn informatik, strukturaviy, tahliliy va akademik bo'ladi, lekin inson auditoriyasini jalb qiluvchi "dramatik ton" kamayadi. Shu bilan birga, SI matni oson tahlil qilinadi, tezis yoki ilmiy maqola uchun tayyor.

Ushbu tadqiqot sun'iy intellekt (SI) tomonidan yaratilgan media matnlarning pragmatik xususiyatlarini o'rganishga qaratildi va inson tomonidan yaratilgan matnlar bilan solishtirildi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, ChatGPT va boshqa SI generatorlar tomonidan yaratilgan matnlar ko'plab pragmatik xususiyatlarni inson matnlari darajasida ifodalay oladi. Shuningdek, SI matnlarida sintaksis xilma-xilligi va formal ohang inson matnlariga nisbatan yuqori bo'lib, bu ularning auditoriyani turli uslubiy yo'nalishlarda jalb qilish imkoniyatini oshiradi. Implisit ma'nolar ko'pincha yashirin shaklda ifodalanadi, bu esa tahlil jarayonida maxsus kodlash va semantik-pragmatik metodlardan foydalanishni talab qiladi.

Mazkur tadqiqot shuni isbotladiki, sun'iy intellekt matnlari pragmatik tahlil uchun yetarli darajada boy ma'lumot manbai hisoblanadi, va ularni inson matnlari bilan birgalikda yoki mustaqil tahlil qilish kelgusida media va lingvistik tadqiqotlarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Austin, J. L. (1962). *How to do things with words*. Clarendon Press.
- Chen, X., Li, J., & Ye, Y. (2024). Pragmatic competence of AI-generated dialogues: A comparison with human-written interaction. *Journal of Pragmatics*, 223, 14–30. <https://doi.org/10.1016/j.pragma.2024.01.003>
- Chudinov, A. P. (2006). *Politicheskaya metafora*. UrGPU.
- Dobrosklonskaya, T. G. (2008). *Medialingvistika: Sistemnyy podkhod k izucheniyu yazyka SMI*. Flinta; Nauka.
- Herbold, S., Hautli-Janisz, A., & Grabowski, J. (2023). A large-scale study on AI-generated texts and human evaluation. *Computers and Education: Artificial Intelligence*. [https://doi.org/\[DOI, agar mavjud bo'lsa\]](https://doi.org/[DOI, agar mavjud bo'lsa])
- Levinson, S. C. (1983). *Pragmatics*. Cambridge University Press.
- Liao, Q. V., Hullman, J., & Sundar, S. S. (2023). Human-AI interaction and trust in AI-generated content. *ACM Transactions on Computer-Human Interaction*. [https://doi.org/\[DOI, agar mavjud bo'lsa\]](https://doi.org/[DOI, agar mavjud bo'lsa])
- Searle, J. R. (1969). *Speech acts: An essay in the philosophy of language*. Cambridge University Press.

Muallif haqida:

Ataboyeva Hojarbibi Yarash qizi – O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti tayanch doktoranti, ataboyevahojarbibi@gmail.com

PRAGMATIC ANALYSIS OF MEDIA TEXTS CREATED BY HUMANS AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE

Hojarbibi Ataboyeva,
University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan


Abstract: This study is devoted to the analysis of pragmatic features of media texts generated by artificial intelligence. Within the research framework, AI-based news headlines are examined using a pragmatolinguistic approach. The analysis employs speech act theory and semantic-pragmatic methods, substantiating the necessity of considering artificial intelligence language as an independent object of pragmatic research.

Keywords: artificial intelligence, contextual meaning, speech acts, headline, communicative intention, pragmatic analysis, illocutionary intention

About the author:

Ataboyeva Hojarbibi – PhD student of University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, ataboyevahojarbibi@gmail.com

ZAMONAVIY MEDIA ISTE'MOLCHILARI UCHUN MATERIAL TAYYORLASHDA TAHRIRIYAT FAOLIYATIGA SUN'YIY INTELLEKT VOSITALARINI INTEGRATSIYA QILISH

Maftuna Abdulkarimova, 

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Ushbu tezisda bugungi kunda ommalashgan sun'iy intellekt texnologiyalarini tahririyatlarda turli xil vazifalarni xususan, auditoriya uchun bir nechta media elementlarini o'zida jamlagan multimedaviy material tayyorlashda qo'llash uchun joriy etish jarayonlari, samaradorligi va muammolari tahlil qilinadi. Shuningdek, O'zbekiston miqyosida xorij tajribalaridan kelib chiqib integratsiya qilish va bunda ularni o'zbek segmentiga moslashtirishda duch kelinadigan baryerlar ham batafsil muhokama qilinadi. Tadqiqot jarayonida zamonaviy media iste'molchilarining talablaridan kelib chiqqan holda material tayyorlashda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanish bilan bir qatorda uning iste'molchilarini o'rganish masalalariga ham nazar tashlanadi. Ikkinchi tomondan esa SI ning tahririyat faoliyatiga joriy etilishi natijasida rahbariyat tomonidan kadrlar bilan ishlashda amalga oshiriladigan islohotlar, zaruriy bilim va ko'nikmalarni bosqichma-bosqich shakllantirish, kadrlar siyosatini yangi tendensiyalar asosida yuritish va tahririyatning ichki boshqaruvining o'ziga xos mexanizmlarini ishlab chiqish jarayonlari o'rganiladi.

Kalit so'zlar: tahririyat boshqaruvi, multimedaviy material, HR, kadrlar siyosati, sun'iy intellekt.

Raqamli texnologiyalarning media makon va undagi jarayonlarga ta'siri tobora kuchayib borayotgan ayni davrda auditoriya uchun jurnalistik yoki media mahsulotlar tayyorlash jarayonlari ham yangi bosqichga o'tganini sezish aslo mushkul emas. Bu jarayonda ommaviy axborot vositalarining online formatlarga o'tishi, tahririyatlarning esa konvergent ish tizimini joriy qilishga bo'lgan ehtiyojini yuzaga keltirdi. Natijada esa tahririyatlar zamonaviy medianing yangicha tendensiyalarini qo'llash bilan bir qatorda dunyoda kechayotgan global texnologik rivojlanishga moslashishga ham majbur bo'la boshladi. Boshqacha qilib aytganda, endilikda texnologik inqilob barcha sohalarni o'zini qamrab olishni talab qila boshladi. Chunki bu borada auditoriya ehtiyojlari aynan yangiliklarning joriy etilishini ko'zda tutmoqda. Bir qancha media unsurlari – matn, rasm, infografika, video tasvirlarni shunchaki umumlashtirish emas, ularni texnika imkoniyatlari yordamida vizual effektlar bilan boyitish, sun'iy intellektning bu boradagi imkoniyatlaridan foydalanish endi barcha uchun oddiy holga aylandi. Hattoki axborot iste'molchilarining o'zi ham SI yordamida kontentlar tayyorlash va promptlar yordamida media mahsulotlarini ishlab chiqarish imkoniga ega bo'lishgani uchun soha xodimlari tomonidan ham bunday ko'nikmalarni o'zlashtirish va materiallar tayyorlashda qo'llashi tabiiy holatga aylanib bormoqda.

Masalaning ikkinchi tomoniga qaraydigan bo'lsak, tan olishimiz kerakki, sun'iy intellekt yordamida ishlaydigan turli xil platformalar og'irimizni yengil qilmoqda. Matn yozishdan tortib to videoni turli usullarda montaj qilib tayyor media mahsulot ko'rinishiga keltirib berish, tahrirlash bilan bir qatorda uning auditoriyasini aniqlab berishda ham katta imkoniyatlarni taqdim etmoqda. Hattoki dunyoning eng rivojlangan media korporatsiyalari bunday platformalar yordamida boshqaruvni avtomatlashtirishda keng foydalanmoqda va ishga qabul qilish jarayonida ham xodimlarning raqamli savodxonligiga e'tibor berishmoqda. Ana shu jihatlarni hisobga olgan holda sun'iy intellektni sohaga integratsiya qilish o'z o'rnida samaradorlik bilan bir qatorda bir qancha muammolarni ham yuzaga keltirishi mumkin. Nima bo'lganda ham jurnalistika ijodiy ishlab chiqarish jarayoni sanaladi. Bu jarayonda inson omili va u tomonidan auditoriyaga taqdim etiladigan hissiyotlar va individual yondashuv muhim sanaladi. Ilmiy tadqiqotda aynan ana shu jihatlarga alohida ahamiyat beriladi.

Jahon hamda milliy mediamizga qaraydigan bo'lsak, so'nggi yillarda tahririyatlarning auditoriyaga tobora moslashib borayotganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Deyarli barcha nashrlar o'zining onlayn formatlari bilan bir qatorda ijtimoiy tarmoqlar orqali ham obunachilarini topishga ahamiyat qaratmoqda. Bu esa o'z navbatida tahririyatga yangi yo'nalishdagi xodimlarni ishga olish ehtiyojini tug'dirmoqda. Ayrim yirik media tahririyatlar kerakli kadrlarni

ishga yollash jarayonida vaqtdan yutish bilan bir qatorda samaradorlikka erishish uchun SI platformalar va chatbotlardan foydalanishmoqda. Xususan, “The Washington Post” xodimlari faqat tajriba asosida emas, balki ularning raqamli portfoliolari orqali baholaydi (Classifieds Marketplace,2025).

Rossiyaning media kompaniyalar bilan ishlovchi HireHub kompaniyasi HR mutaxassisidan olingan intervyuda kompaniyaning ish faoliyatining barcha jihatlariga sun’iy intellektga asoslangan neyron tarmoqlarni faol joriy etilgani, bu esa qidiruv jarayonini tezlashtirish, profillarni qayta ishlashga ketadigan vaqtni qisqartirish hamda mijozlar uchun xizmat sifatini oshirish imkonini berayotganini alohida ta’kidlaydi.

Shuningdek ular neyron tarmoqlardan jarayonlarni optimallashtirish maqsadida foydalanishi, natijada barcha jarayonlar uchun sarflanadigan vaqt va mehnat resurslari tejalayotganiga alohida urg’u bergan. Kompaniya shuningdek o’tkazilgan intervyular yozib olinganidan so’ng audioyozuvni transkripsiya tizimiga uzatilishi, u esa uni matn ko’rinishiga aylantirishini, keyin ushbu matn maxsus tayyorlangan botga yuborilishini, bot esa standart shablonlar asosida nomzod haqida avtomatik tarzda tahliliy xulosa tayyorlashini ma’lum qilgan (Галь, 2024). Tabiiyki, tahririyat faoliyati ijodiy ishlab chiqarish ustiga qurilgan ekan, bu yo’nalishda ham sun’iy intellekt va zamonaviy texnologiyalarning insoniyatga bergan imkoniyatlaridan keng foydalanilmoqda. Misol uchun Italiyaning “Il Foglio” gazetasi to’liq AI texnologiyalari asosida chop etilayotgan bo’lsa, (Kaval, 2025) Yaponiyaning Shinano Mainichi Shimbun gazetasi yirik IT kompaniyasi hisoblangan Fujitsu bilan hamkorlikda tahririyatga kelib tushgan maqolalar tahrirlash jarayonida har bir maqola uchun 5 daqiqa sarflagan holda tezda o’qib berish imkoniyatini beruvchi dasturiy ta’minotni yaratib, undan foydalana boshladi (Hornyk,2019). Bu esa tahririyatdagi ijodiy jarayonni yanada tezkorlikka olib chiqishga yordam beradi. Endi jarayon “ручной” tarzda jurnalistlar vaqtini ortiqcha olib o’tirmaydi.

Bu borada so’nggi yillarda O’zbekistonda ham bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Mahalliy OAV faoliyatiga nazar tashlaydigan bo’lsak, bizda sun’iy intellektning sohaga tatbiq etilishi bosqichma-bosqich amalga oshmoqda. Masalan, 2025-yil 28-mayda Toshkentda jurnalistlar uchun “sun’iy intellektni zamonaviy jurnalistikada qo’llash” mavzusida amaliy trening bo’lib o’tdi. Shuningdek, United States Agency for Global Media (USAGM) tomonidan Buxoro viloyatida AI vositalari bilan jurnalistika bo’yicha seminarlar tashkil etildi (Solution journalism, 2024). Biroq O’zbekistonda hali hanuz etika, ma’suliyat va shaffoflik masalalariga doir muammolar va ishonchsizlik yuzaga kelayotgani ko’zga tashlanadi. Ushbu tezis orqali sun’iy intellektning mediaga tatbiq etilishining o’ziga xos muammoli holatlari mavjudligi alohida qayd etiladi. Misol uchun, 35 yoshdan yuqori bo’lgan jurnalistlar va media xodimlarida AI vositalari bo’yicha tayyorgarlik va media savodxonligi yetarli emasligi, texnik infratuzilma va moliyaviy qo’llab-quvvatlash cheklangan bo’lishi, o’zbek tilidagi kontent, mahalliy SI modellari va bazalarining yetishmasligi, sun’iy intellekt bilan bog’liq savodxonlikning pastligi tadqiqotlar orqali aniqlanmoqda. (Djumanova, 2025)

Zamonaviy media makonida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi tahririyat faoliyatining mazmuni, tuzilmasi va ish jarayonlarini tubdan o’zgartirmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, sun’iy intellekt vositalarini tahririyat faoliyatiga integratsiya qilish zamonaviy media iste’molchilarining tezkorlik, shaxsiylashtirish, vizuallik va interaktivlikka bo’lgan ehtiyojlarini qondirishda muhim omil hisoblanadi. Sun’iy intellekt kontent ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, multimedia mahsulotlarini yaratish samaradorligini oshirish va auditoriya bilan ishlash sifatini yaxshilash imkonini bermoqda. Shu bilan birga, sun’iy intellektni joriy etish tahririyat boshqaruvi va kadrlar siyosatida sifat jihatidan yangi yondashuvlarni talab etadi. Jurnalistlar va muharrirlarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish, texnologik va ijodiy ko’nikmalar o’rtasida muvozanatni ta’minlash, shuningdek, sun’iy intellektni inson ijodkorligini to’ldiruvchi vosita sifatida qabul qilish dolzarb vazifalardan biri bo’lib qolmoqda. Xorijiy media tajribalari shuni ko’rsatadiki, sun’iy intellekt dan samarali foydalanayotgan tahririyatlar texnologiyani jurnalistik faoliyatni cheklovchi emas, balki uni qo’llab-quvvatlovchi va rivojlantiruvchi mexanizm sifatida tatbiq etmoqda.

Tadqiqot natijalariga ko’ra, O’zbekiston media makonida sun’iy intellekt vositalarini integratsiya qilish jarayonida texnologik infratuzilmani rivojlantirish, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish va milliy auditoriya xususiyatlarini hisobga olgan holda moslashtirilgan strategiyalarni ishlab chiqish zarur. Ushbu yondashuv tahririyatlarning raqobatbardoshligini

oshirish, sifatli multimediyaviy mahsulotlar yaratish va media iste'molchilari bilan samarali kommunikatsiyani yo'lga qo'yishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, sun'iy intellekt vositalarining tahririyat faoliyatiga integratsiyasi zamonaviy jurnalistika rivojining ajralmas qismi bo'lib, u media mahsulotlar sifatini oshirish, tahririyat boshqaruvini optimallashtirish va media sohasida barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun strategik ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Djumanova, S. (2025). Indicators of media literacy of Uzbek media representatives related to the use of artificial intelligence. *International Journal of Media and Information Literacy*, 10(1), 18. doi: 10.13187/ijmil.2025.1.13

Gal, D. (2024). Мы предоставляем боту полный доступ, за исключением возможности делать комментарии о кандидате. *Управление персоналом*, 27(751), 25–26.

Hornyk, T. (2019, January 29). A newspaper in Japan is using AI to summarize news stories to get them out quicker. Retrieved from <https://splicemedia.com/stories/shinano-ai-summaries>

Kaval, A. (2025, March). In Italy, "Il Foglio" newspaper provocatively launches a supplement entirely made by AI. *Le Monde Magazine*. Retrieved from https://www.lemonde.fr/en/international/article/2025/03/26/in-italy-il-foglio-newspaper-provocatively-launches-a-supplement-entirely-made-by-ai_6739523_4.html

Solutions Journalism Series – Artificial Intelligence. (2024, November). U.S. Agency for Global Media. Retrieved from <https://www.usagm.gov/2024/12/04/solutions-journalism-series-artificial-intelligence-bukhara/>

Washington Post. (n.d.). Human resources. Retrieved February 5, 2026, from <https://jobs.washingtonpost.com/jobs/human-resources/>

Muallif haqida:

Abdukarimova Maftuna Xudoyberdi qizi – O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti 1-bosqich tayanch doktoranti, maftunaabdukarimova65@gmail.com

INTEGRATION OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TOOLS INTO EDITORIAL ACTIVITIES IN THE PREPARATION OF MATERIALS FOR MODERN MEDIA CONSUMERS

Maftuna Abdukarimova,
University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan

Abstract: This thesis analyzes the processes of implementation, effectiveness, and existing challenges of applying widely used artificial intelligence technologies in editorial practices, particularly in the production of multimedia content that integrates multiple media elements and is designed for diverse audiences. In addition, drawing on international experience, the study examines the prospects of integrating these technologies within the media landscape of Uzbekistan and discusses in detail the barriers encountered in adapting them to the national media segment. Based on the demands of contemporary media consumers, the research emphasizes the extensive use of artificial intelligence capabilities in content production, alongside the importance of studying and understanding audience behavior. Furthermore, the paper explores the organizational transformations within editorial management resulting from the adoption of artificial intelligence, including reforms in human resource management, the gradual development of essential competencies and skills, the implementation of personnel policies aligned with emerging trends, and the formation of specific internal governance mechanisms within editorial offices.

Keywords: editorial management, multimedia content, HR, personnel policy, artificial intelligence.

About the author:

Abdukarimova Maftuna – PhD student of University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, maftunaabdukarimova65@gmail.com

TEXNOLOGIK TA'LIM YO'NALISHI TALABALARINI IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

Bobir Boymurodov,^{ID}

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Maqola raqamlashtirilgan ta'lim muhitida talabalarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga va zamonaviy ta'lim texnologiyalari samaradorligi muammolariga bag'ishlangan. Zamonaviy ta'limning asosiy vazifasi mutaxassislar tomonidan dunyoni ijodiy o'zgartirish metodologiyasini o'zlashtirishdir. Ijodkorlik jarayoni birinchi navbatda yangi narsalarni kashf qilishni o'z ichiga oladi: yangi obyektlar, yangi bilimlar, yangi muammolar, ularni hal qilishning yangi usullarini. Raqamlashtirilgan ta'limni faqat bilim va ko'nikmalarni egallashga qisqartirish mumkin emas, buning eng yuqori maqsadiga erishish, o'z-o'zini anglash va ijodda o'zini namoyon qilish vositasi hisoblanadi.

Kalit so'zlar: raqamlashtirilgan ta'lim, ijodiy qobiliyat, ijodkorlik, xotira qobiliyati, intuitiv, kommunikativ, kognitiv, operatsion, motivatsion

Jahon amaliyotida ta'lim oluvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda grafik bilimlar, obyektlarning funksional va konstruktiv o'ziga xosligini bilishga asoslangan ko'nikma va malakalar (kompetensiyalar)ni samarali qo'llash, kasbiy yo'nalganlik va faoliyat tajribasi, axborot texnologiyalari bo'yicha erkin ijodkorlik muhitini yaratish, muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat, uning ahamiyati va muayyan texnologik masalalarga munosabat, o'qituvchi yo'l qo'yadigan xatolarning oldini olishga qaratilgan korrekktiv mashqlar tizimi alohida ahamiyatga ega. Shu jihatdan oliy ta'lim muassasalarida malakali kadrlar tayyorlaydigan davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv dasturlarida konstruktorlik, ishlab chiqarish texnologik va kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning ilmiy asoslangan tizimini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Umumiy qabul qilingan yondashuv yo'qligini hisobga olgan holda, ijodiy qobiliyatlarning mohiyatini, tuzilishi va xarakterli xususiyatlarini aniqlash uchun zarur bo'lgan asosiy tushunchalar ijod va qobiliyat tushunchalari hisoblanadi. Ijodiy qobiliyat ko'plab fazilatlarining qorishmasidir.

Ijodiy qobiliyat - bu o'ziga xos ijodiy faoliyatning muayyan turini muvaffaqiyatli amalga oshirish va uning ishlash darajasini olib borish imkoniyatini aniqlaydigan shaxsiy xususiyatlarning uyg'unligi. Ijodiy qobiliyat qiziqish bilan namoyon bo'ladi va hissiy munosabat ijod, mantiqiy va ijodiy fikrlash, tasavvur, ijodkorlik va qat'iyatlilik uchun ijodiy izlanishda va boshqa bir sohada yangi narsalarni yaratishni ta'minlaydi (Shokirova Ch. T. 2009).

Ijodkorlik – bu boshqalarning fikriga qarshi turishga tayyor bo'lgan to'siqlar, ichki motivatsiya, bag'rikenglik va noaniqlikni yengishga tayyorlik uchun imkoniyatga ega bo'lish qobiliyatini o'z ichiga oladi (Muslimov, 2013).

Olimlar, ixtirochilar, rassomlar va san'atkorlarning tarjimai holiga tayanib, quyidagicha ijodiy qobiliyatlarni ajratib ko'rsatib o'tish mumkin:

- boshqalar ko'rmaydigan muammolarni ko'rish qobiliyati;
- bir nechta tushunchalarni almashtirish, ko'proq va sezgir belgilarni qo'llash qobiliyati;
- vazifalarni hal qilishda mavjud ko'nikmalarni qo'llash qobiliyati;
- aql-idrokni qismlarga aralastirmaslik qobiliyati;
- tushunchalarni osonlashtirish qobiliyati;
- kerakli ma'lumotlarni to'g'ri vaqtda berish uchun xotira qobiliyati;
- fikrlash moslashuvchanligi;
- muammoni hal qilishdan oldin uning uchun alternativlardan birini tanlash qobiliyati;
- yangi bilimlar tizimida yangi qabul qilingan ma'lumotlarni kiritish qobiliyati;
- kuzatuv bilan kiritilgan bilimlardan ajratish qobiliyati;
- g'oyalarni uyg'otish qulayligi;
- ijodiy tasavvurlar;
- tafsilotlarni takomillashtirish, boshlang'ich dizaynni yaxshilash qobiliyati.

Raqamlashtirilgan ta'lim muhitida talabalarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda talabaning shaxsiy tarkibiy qismlarini ajratishga imkon beradigan tarkibiy model quyidagilardan iborat:

- talabaning motivatsion va ijodiy faoliyati;

- talabning intellektual va mantiqiy qobiliyatlari;
- intuitiv shaxsning intuitiv qobiliyatlari;
- individual ijodiy faoliyatni targ'ib qilish;
- o'z-o'zini boshqarish qobiliyati
- ta'lim va ijodiy faoliyatda o'zini-o'zi boshqarish qobiliyati;
- kommunikativ va ijodiy shaxsning qobiliyatlari;
- ijodiy faoliyatning samaradorligi.

Raqamlashtirilgan ta'lim muhitida texnologik ta'lim yo'nalishida o'qitilayotgan mashg'ulotlarda talabning ijodiy imkoniyatlarini amalga oshirishga e'tibor qaratadigan, nostandart vaziyatlarda maqbul tanlovlarni amalga oshiruvchi ko'nikmalarni shakllantiradigan, talabning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar berish maqsadga muvofiq. Bu kelajakda bo'lajak muhandislarning kasbiy faoliyatiga ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi tayyorgarligi shakllanishini belgilaydi.

Dastlab, raqamlashtirilgan ta'lim muhitida texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarini dars jarayonida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish mohiyatini, strukturasi va tarkibiy qismlari aniqlash lozim. Bu jarayondagi dastlabki tushuncha "tayyorgarlik". Lug'aviy manbalarda "tayyorgarlik" tushunchasi turlicha talqin qilinadi:

- tayyorlik holati, biror narsaga tayyorlanish holati; biror narsaga qaror qilish, xohish, mayl, niyat; biror narsa qilish uchun kelishuv, hamma narsa bo'lgan holat bajarilgan, qilingan, hammasi uchun tayyorlangan biror narsa;

- kelajakka ongli munosabatni yuqori darajada amalga oshiradigan motivatsion faoliyati, kognitiv rivojlanish, kelgusi shaxsning hissiy va irodaviy jarayonlari yoki muvaffaqiyatni ta'minlaydigan jamoaviy tadbirlar (Muslimov, 2013).

Raqamlashtirilgan ta'lim muhitida texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining yetarli darajadagi tayyorlik holatini, dars yakunidagi samarali natija sifatida tushunish mumkin. Keng ma'noda qaraladigan bo'lsa, bo'lajak muhandislarning "professional pedagogik tayyorgarligi" kontseptsiyasi va uni talabalarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga tayyorgarlik prizmasida ko'rib chiqish lozim.

Raqamlashtirilgan ta'lim muhitida texnologik ta'lim yo'nalishlari talabalarini kasbiy va pedagogik tayyorgarlik elementlarining tarkibiy qismi sifatida quyidagilar: 1) motivatsion; 2) kognitiv; 3) operatsion; 4) o'qituvchining talabalarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga tayyorligining baholash asosi bilan belgilanadi (Nasritdinova U. A., 2018).

1. Motivatsion komponentli tayyorgarlik - "Motiv faoliyatning markaziy tayanch omilidir". "Faoliyat motivatsiyasi - bu faoliyatni rag'batlantiruvchi va yo'naltiruvchi sabablar yig'indisi (ehtiyotlar, maqsadlar, ideallar, munosabatlar, da'volar darajasi, normalari, yo'nalishlari)". Keltirilgan fikrlarga asoslanib o'qituvchi o'quv jarayonida talabalarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishi uchun barqaror motivatsiyani shakllantirishga e'tibor qaratishi lozim.

2. Kognitiv bu jarayonda tayyorlikning kognitiv komponenti harakatni amalga oshirishda haqiqatda tayanadigan ko'rsatmalar tizimini o'z ichiga oladi. O'qituvchining o'quv jarayonida talabalarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha faoliyatining kognitiv asosi uning ushbu faoliyatga shakllangan tayyorgarligi davrida ijodiy qobiliyatlarning mohiyatini va ularni rivojlantirish shartlarini bilishni o'z ichiga olishi kerak. Ijodiy faoliyatning mohiyatini, o'quv jarayonida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etish usullarini bilishi kerak. Boshqacha aytganda, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish nazariyasi va metodologiyasini bilishi zarur. Kognitiv komponentning muhim tarkibiy qismi ham fan bilimlari va fanni o'qitish usullarini bilishidir.

3. Raqamlashtirilgan ta'lim muhitida texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarini tayyorgarligining operatsion komponenti shakllanganlarni o'z ichiga oladi. Bu jarayonda o'qituvchi o'quv jarayonida talabalarining ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish faoliyatini amalga oshirish usullariga ega bo'lishi lozim. Ya'ni, tayyorlikning operativ komponenti, talabalarining ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan o'z-o'zidan shakllangan ko'nikmalar va qobiliyatlar.

Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarini ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda integratsiyalashgan shaxsiy-kasbiy sifatlarni shakllantirishda quyidagi xususiyatlar: ijodiy faoliyatga, ijodiy faoliyatni tashkil etish bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi; kasbiy pedagogik muammolarni ijodiy hal eta olishi maqsadga muvofiq.

Raqamlashtirilgan ta'lim muhitida texnologik ta'lim yo'nalishida o'qitilayotgan mashg'ulotlarda talabarning ijodiy imkoniyatlarini amalga oshirishga e'tibor qaratadigan, nostandart vaziyatlarda maqbul tanlovlarni amalga oshiruvchi ko'nikmalarni shakllantiradigan, talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan topshiriqlar berish maqsadga muvofiq. Bu kelajakda bo'lajak muhandislarning kasbiy faoliyatiga ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdagi tayyorgarligi shakllanishini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- Muslimov, N., va boshq. (2013). Pedagogika [Nopedgogik OTM uchun]. Toshkent: TDPU.
Nasritdinova, U. A. (2018). Kompyuter grafikasi fanini o'qitishda uch o'lchamli modellashtirish vositasidan foydalanish metodikasi (Ped.fanl. bo'yicha fals.dokt. dis.). Toshkent.
Shokirova, Ch. T. (2009). Talabalarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish va dasturiy nazorat asosida o'qitish samaradorligini oshirish (Diss. ... ped.fan.nom.). Andijon.

Muallif haqida:

Boymurodov Bobir Elmurodovich - O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, Mediadizayn kafedrasida katta o'qituvchi, El.pochta: boymurodovbe@gmail.com

DEVELOPING CREATIVE ABILITIES OF STUDENTS IN TECHNOLOGICAL EDUCATION

Bobir Boymurodov,
University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan

Abstract: The article is devoted to the development of students' creative abilities in a digitized educational environment and to the issues of effectiveness of modern educational technologies. The main task of contemporary education is the mastery of the methodology of creatively transforming the world by future specialists. The process of creativity primarily involves discovering new things: new objects, new knowledge, new problems, and new methods of solving them. Digitized education cannot be reduced solely to the acquisition of knowledge and skills; it also serves as a means of achieving higher goals - self-awareness and self-expression through creativity.

Keywords: digitized education, creative ability, creativity, memory ability, intuitive, communicative, cognitive, operational, motivational

About the author:

Boymurodov Bobir Elmurodovich – Senior Lecturer, Department of Media Design, University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, E-mail: boymurodovbe@gmail.com

AI GALLYUTSINATSIYANI BARTARAF ETISH MUMKINMI?

Sanobar Djumanova, 

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti,
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Annotatsiya: Maqolada sun'iy intellekt tizimlarida uchraydigan "gallyutsinatsiya" hodisasining sabablari va oqibatlari tahlil qilinadi. Katta til modellari tomonidan yaratilgan noto'g'ri ma'lumotlar jurnalistika, tibbiyot, turizm va ilmiy tadqiqotlarda dezinformatsiya xavfini kuchaytirishi ko'rsatiladi. Shuningdek, uydirma havolalar, noto'g'ri faktlar va algoritmik xatoliklarning oldini olish uchun foydalanuvchilarga amaliy tavsiyalar beriladi. Tadqiqot gallyutsinatsiyani kamaytirish va mediasavodxonlikni oshirishning dolzarbligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, gallyutsinatsiya, dezinformatsiya, katta til modellari, faktcheking.

So'nggi yillarda neyrotarmoqlarning ommaviyligi oshib borgani sayin, uning zaif tomoni va kamchiliklari ham ko'zga tashlana boshladi. Ba'zi vaziyatlarda u bergan natijalar noto'g'ri yoki adashtiruvchi bo'lib chiqmoqda. Neyrotarmoqlarning noaniq, adashtiruvchi yoki haqiqatga muvofiq kelmaydigan ma'lumot taqdim etishi holati ko'p uchraydi. Ma'lumotlar ishonarli tuyuladi, unda raqamlar, shaxs va joy nomlari, havolalar keltiriladi, biroq keltirilgan ma'lumotlar noto'g'ri. Bu holat gallyutsinatsiya deb nomlanadi.

Gallyutsinatsiya - sun'iy intellekt tizimining o'zi o'rgatilgan dastlabki ma'lumotlarga mos kelmaydigan, ishonch bilan aytilgan reaksiyasi; real voqelikka aloqasi bo'lmagan, o'zi tomonidan o'ylab topilgan javoblaridir (BBC, 2023). Masalan, agar chat-bot Tesla daromadlari haqida hech qanday ma'lumot olmagan bo'lsa, u tasodifiy raqamni (masalan, «13,6 mlrd dollar») tanlashi, uni o'z "bilish bazasiga" kiritib olishi va keyinchalik hech qanday tanqidiy qayta ko'rib chiqmasdan, bir necha bor aytishi mumkin (Fast Company, 2023). Gallyutsinatsiyaga ba'zida algoritmlar bir-biriga bog'liq bo'lmagan ma'lumotlarni bog'lagani yoki ularni noto'g'ri izohlagani sababli yuzaga keladi. Gallyutsinatsiyaning asosiy xavfi shakliga ko'ra ishonchli, lekin real faktlarga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlar yaratishidir.

Gallyutsinatsiyani o'rganish va uni ilmiy muhokama etish 2022-yilda katta til modellarining ommaviy joriy etilishi bilan paydo bo'ldi. 2023-yilda tahlilchilar gallyutsinatsiyani katta til modellari texnologiyasining jiddiy muammolaridan biri sifatida baholadilar. Shu munosabat bilan Ilon Mask va Stiv Voznyak sun'iy intellekt dasturlarini rivojlantirishni vaqtincha to'xtatish taklifi bilan ochiq xat bilan chiqishdi, ularning murojaatini mingdan ortiq tadbirkor va mutaxassislar qo'llab-quvvatladi.

Sun'iy intellektidagi gallyutsinatsiya hodisasi bir necha rakurslarda o'rganilgan. Masalan, J.Christensen M.J.Hansen va P.Wilson, tomonidan gyenerativ sun'iy intellekt gallyutsinatsiyasining turizm sohasida iste'molchilarning qaror qabul qilish jarayonlariga ta'sirini tushunish mavzusida tadqiqot olib borgan bo'lib (Christensen, 2025), tadqiqotda 900 nafar iste'molchi o'rtasida so'rovnoma o'tkazilgan va sun'iy intellekt gallyutsinatsiyasi turizm sohasida dezinformatsiya xavfini oshirishini ko'rsatib berilgan.

S.A.Athaluri va boshqalar tomonidan "Reallik chegaralarini o'rganish: ChatGPT bergan havolalar orqali sun'iy intellekt gallyutsinatsiyasi fenomenini ilmiy adabiyotda tadqiq qilish"(Athaluri, 2023) mavzusida yozilgan maqolada neyrotarmoqlarning xato ma'lumot (gallyutsinatsiya) yoki mavjud bo'lmagan havolalarni keltirib chiqarish xavfi ko'rsatilgan. Ushbu maqolada ChatGPT tomonidan to'liq shakllantirilgan tadqiqot takliflarida uchraydigan gallyutsinatsiya darajasi, xususan noto'g'ri, mavjud bo'lmagan yoki soxta havolalar tahlil qilingan. Unda ChatGPT tomonidan yaratilgan 178 ta havola (reference) tekshirilgan. Natijada 178 havolaning 69 tasida DOI mavjud emasligi aniqlangan. 28 ta havola - Google qidiruvida ham topilmagan. 3 ta havola haqiqiy ilmiy maqolalar emas, kitoblardan olingan va manba noto'g'ri ko'rsatilgan bo'lgan. Bu holatlar shundan dalolat beradiki, ChatGPT yaratib bergan ilmiy havolalar har doim ishonchli emas - soxta DOI, mavjud bo'lmagan maqolalar va adashgan manbalar uchrashi mumkin.ChatGPT tomonidan yaratilgan havolalarni bevosita qabul qilish xavfli. Tekshirish, qayta qidirish va asosiy manbani mustaqil ravishda topish zarur.

Tibbiyot mavzusidagi axborotlarning ishonchligi ham juda muhim masala hisoblanadi. R.Hatem va boshqalar tomonidan gallyutsinatsiyasiga qarshi kurash va tibbiyot xodimlari

ularning xavfini qanday kamaytirishi mumkinligi to'g'risidagi tadqiqot olib borgan. Unda keltirilishicha, "sun'iy intellekt gallyutsinatsiyalari" deb nomlangan hodisaga e'tibor berish zarur. Bu holatlar noto'g'ri yoki soxta ma'lumotlarni yaratish, sun'iy inTursunotellekt tizimlariga va ulardan foydalanuvchilarga nisbatan salbiy qarashlar (stigmatizatsiya) yuzaga keltirishi mumkin. Yangi sun'iy intellekt tizimlari paydo bo'lsa, tibbiyot xodimlari ularni tanqidiy baholashni davom ettirishi zarur. Bu xato ma'lumotlar va gallyutsinatsiyalardan kelib chiqadigan xavflarni kamaytirishga yordam beradi (Hatem, 2023).

Jurnalistika sohasidaham amaliy misollar ko'p. Masalan, 2024-yil boshida BBCda sun'iy intellekt tomonidan tayyorlangan maqolada "manba" sifatida ko'rsatilgan havolalar tekshirilganda, ularning aslida mavjud emasligi aniqlangan. Shuning uchun jurnalist SI yordamida olingan har qanday ma'lumotni albatta tekshirishi, tasdiqlangan va nufuzli manbalar bilan solishtirishi zarur. Faktcheking har qanday sharoitda jurnalistning eng muhim etik burchlaridan biridir (Alimov, 2025).

Yana bir necha misollar bor:

1. ChatGPT foydalanuvchiga tuz iste'molini kamaytirish uchun natriy xloridni natriy bromid bilan almashtirishni tavsiya qilgan. Bu esa bemorda bromizm kasalligi va psixoz rivojlanishiga olib kelgan.

2. SI tomonidan yaratilgan va AQShning nufuzli gazetalarida chop etilgan yolg'on maqola ro'yxatda keltirilgan 15 ta kitobdan 5 tasi haqiqiy bo'lib chiqqan, qolganlari esa butunlay SI tomonidan to'qib chiqarilgan.

3. Yangi Zelandiyadagi yirik supermarket tarmog'ining SI ilovasi foydalanuvchilarga xlor gazini hosil qiluvchi retseptlar, olim qo'shilgan shampunlar hamda hasharotlarga qarshi spreying solingan kartoshka taomlarini tavsiya qilgan.

4. MyPillow kompaniyasi advokati SI yordamida tayyorlangan hujjatni sudga taqdim etgan. Unda 30 ga yaqin manja bo'lgan (to'qima) yuridik iqtiboslar va soxta sud qarorlari keltirilgan. Shu kabi holat Minnesota shtati Bosh prokurori ishida ham kuzatilgan. Kanadada aviakompaniya chatboti yaqin qarindoshi vafot etgan mijozga chegirma bergan.

J.Devanny va boshqalar tomonidan olib borilgan tahlillarda esa xato ma'lumotlar, kiritilgan qarashlar (bias) va gallyutsinatsiyalarga qaramay, generativ neyrotarmoqlar vaqt yetishmasligi bilan yuzlashayotgan insonning tajribasi, bilimi va "reallik hissi" talab qiladigan vazifalarga e'tibor qaratgan holda samarali qo'llanilishi mumkin (Devanny, 2023).

Demak, taraqqiyot davom etadi, neyrotarmoqlardan foydalanish jarayoni kengayaveradi, bu jarayonda sun'iy intellekt generatsiyasi qanday sodir bo'ladi, uni qanday aniqlash mumkin, degan savollarga javob topish juda muhim.

Demak, gallyutsinatsiya bir nechta sabablarga ko'ra ro'y berishi mumkin va ko'pincha ular bir vaqtning o'zida bir nechta omillar majmuidan iborat bo'ladi. Deylik, model aniq va to'liq natija berish uchun yetarli miqdorda o'quv ma'lumotlariga ega emasligi, o'rganish uchun juda ko'p ma'lumot bo'lib, ortiqcha va norelevant "ma'lumot shovqini" muhim va dolzarb ma'lumot bilan adashib ketishi. Yoki sun'iy intellekt modeliga foydalanuvchi berilgan ma'lumot asosida noto'g'ri xulosalar chiqarishi mumkin. Sun'iy intellekt modeli haqiqiy kontekstni bilmasligi ham ehtimoli bor.

Gallyutsinatsiya noto'g'ri prognoz, yolg'on yoki to'qima ma'lumot, mantiqsiz tahlil ko'rinishida bo'ladi. Bir qarashda gallyutsinatsiyada unchalik xavfli narsa yo'qdek tuyulishi mumkin, va go'yo ma'lumotlarni modeldan yana bir marta o'tkazish orqali to'g'ri natija olib, muammoni hal qilish mumkinday ko'rinadi. Ammo masala bundan ancha murakkab. Aniq amaliyotlarda qo'llanilgan yoki ommaga tarqalgan gallyutsinatsiyalar juda katta miqyosdagi odamlarga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin (kaspersky, 2024).

Gallyutsinatsiyani 70-80 foizgacha kamaytirish bu foydalanuvchiga bog'liq. Bu muammoning oldini olish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlarni tavsiya etish mumkin:

— Generativ emas (ChatGPT, Gemini, Grok, DeepSeek) emas, balki manbalarga asoslangan (Copilot, Perplexity) neyrotarmoqlardan foydalanish.

— Aniq va kontekstli savol berish. Noaniq yoki juda umumiy savollar sun'iy intellekt tomonidan "o'ylab topilgan" javoblar xavfini oshiradi. Shuning uchun savolda ana vaqt, joy, chegaralarini aniq ko'rsatish juda muhim. Misol, «Kim birinchi kompyuterni yaratgan?» deb emas, «1940–1950-yillar oraligida ommaviy tan olingan birinchi elektron kompyuterni kim yaratgan? Manba ko'rsat.» deyish maqsadga muvofiq.

— Sun'iy intellekt ma'lumot yetmasa, uni to'ldirishini inobatga olgan holda topshiriq kiritayotganda «Agar aniq ma'lumot bo'lmasa, o'ylab topma, bilmasligingni ayt», deyish. Bu gallyutsinatsiyani keskin kamaytiradi.

— Manbalarni talab qilish. Fakt so'ralganda neyrotarmoqdan real manbalar, maqola nomlari, ishonchli veb-sahifalar talab qiling. «Iltimos, real ilmiy manbalarni keltir. Uydirma havolalar bo'lmasin». Shunda uydirma havolalarni oson topish mumkin.

— Javobni qismlarga bo'lib so'rash. Katta savolga beriladigan katta javoblarda xato ehtimoli yuqori. Shuning uchun mavzuni bo'lib-bo'lib berish ham samarali: ta'rifi, tarixi, asosiy faktlar, misollar kabi.

— Qarshi savol bilan tekshirish (cross-examination). Javobdan shubhalansangiz, «Bu ma'lumotga zid bo'lgan boshqa ilmiy fikrlar bormi?» deysiz. Sun'iy intellekt o'z javobini qayta tekshiradi.

— Tashqi manbalar orqali faktlarni tekshirish. Neyrotarmoq ma'lumotlari – absolyut haqiqat emas. Javoblarni rasmiy va ishonchli manbalardan tekshiring.

— Huquq, tibbiyot, eng so'ngi yangiliklar bo'yicha sun'iy intellektdan ehtiyot bilan foydalanish.

Sun'iy intellektda gallyutsinatsiya hodisasi - zamonaviy raqamli texnologiyalar taraqqiyoti bilan dolzarblashgan muammolardan biridir. U neyrotarmoqlar tomonidan ishonch bilan aytilgan, biroq real faktlarga mos kelmaydigan ma'lumotlarning paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, gallyutsinatsiya turli sohalarda - turizm, tibbiyot, jurnalistika, ta'lim, foydalanuvchi interfeyslari kabi yo'nalishlarda jiddiy xatolarga, dezinformatsiyaga va ishonchsizlikka olib kelishi mumkin. Umuman olganda, sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanish kelajakda yanada kengayadi. Shuning uchun gallyutsinatsiya mexanizmlarini tushunish, uni kamaytirish texnologiyalarini ishlab chiqish va foydalanuvchilarning mediasavodxonligini oshirish – raqamli jamiyat barqarorligi uchun muhim vazifadir. Neyrotarmoqlar imkoniyatlari katta bo'lsa-da, inson tajribasi, tanqidiy fikrlash va faktlarni mustaqil tekshirish hali ham eng ishonchli vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Alimov, B. (2025, June 3). Sun'iy intellekt axborot xavfsizligiga tahdiddimi yoki taraqqiyot kaliti? Yangi O'zbekiston gazetasi, 111.

Athaluri, S. A., Manthena, S. V., Kesapragada, V. S. R. K. M., Yarlagadda, V., BBC News Russian. (2023). Retrieved from <https://www.bbc.com/russian/news-65117669>

Dave, T., & Duddumpudi, R. T. S. (2023). Exploring the boundaries of reality: Investigating the phenomenon of artificial intelligence hallucination in scientific writing through ChatGPT references. Cureus. <https://doi.org/10.7759/cureus.37432>

Devanny, J., Dylan, H., & Grossfeld, E. (2023). Generative AI and intelligence assessment. RUSI Journal, 168(7). <https://doi.org/10.1080/03071847.2023.2286775>

Fast Company. (2023). How to trick OpenAI ChatGPT. Retrieved March 29, 2023, from <https://web.archive.org/web/20230329155859/https://www.fastcompany.com/90819887/how-to-trick-openai-chat-gpt>

Christensen, J., Hansen, J. M., & Wilson, P. (2025). Understanding the role and impact of generative artificial intelligence (AI) hallucination within consumers' tourism decision-making processes. Current Issues in Tourism, 28(4). <https://doi.org/10.1080/13683500.2023.2300032>

Hatem, R., Simmons, B., & Thornton, J. E. (2023). A call to address AI "hallucinations" and how healthcare professionals can mitigate their risks. Cureus. <https://doi.org/10.7759/cureus.44720>

<https://www.kaspersky.ru/resource-center/definitions/ai-hallucination?ysclid=mhyikzkj dk425310666>

Muallif haqida:

Djumanova Sanobar Bazarbayevna - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti va O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi dot.v.b. Toshkent, O'zbekiston

Email: marifat.88@mail.ru

IS IT POSSIBLE TO ELIMINATE AI HALLUCINATIONS?

Sanobar Djumanova,
University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan

Abstract: The article analyzes the causes and consequences of the “hallucination” phenomenon observed in artificial intelligence systems. It is shown that incorrect information generated by large language models increases the risk of misinformation in journalism, medicine, tourism, and scientific research. The study also provides practical recommendations for users to prevent fabricated references, inaccurate facts, and algorithmic errors. The research substantiates the relevance of reducing AI hallucinations and enhancing media literacy.

Keywords: artificial intelligence, hallucination, misinformation, large language models, fact-checking.

About the author:

Djumanova Sanobar Bazarbayevna – PhD in Philological Sciences, Associate Professor (Acting), University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, and International Islamic Academy of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan.

Email: marifat.88@mail.ru

SIYOSIY TELEDEBATLAR VA SUN'YIY INTELLEKT: ELEKTORAL MULOQOTDA RAQAMLI ETIKA MUAMMOLARI

Nafosat Davlatova,^{ID}

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada global raqamli transformatsiya jarayonining saylovoldi va saylov jarayonlariga ta'siri, teledebatlarni tashkil qilishga qo'llash mumkin bo'lgan yangi yo'nalishlar va ularda sun'iy intellektning ta'sir doirasi tahlil qilinadi. Izlanishlar davomida tadqiqotning metodologik asosi sifatida Yuneskonning 2025-yildagi "Sun'iy intellekt va saylovlar" nomli fundamental qo'llanmasi o'rganilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt an'anaviy media mantiqni chetlab o'tishi kuzatilmoqda, uning o'rnini esa algoritmik mantiq egallamoqda. Bu esa o'z o'rnida sohada yangi tahdidlar boshlanayotganini bildiradi. Masalan, teledebatlar davomida dezinformatsiya yaratish imkoniyatlari, deepfake texnologiyalari orqali nomzodlar qiyofasini soxtalashtirishi, etik me'yorlarning buzulishi shular jumlasidan.

Kalit so'zlar: teledebatlar, sun'iy intellekt, YUNESKO, global transformatsiya, algoritmik muloqot, dezinformatsiya, elektoral muloqot.

So'nggi yillarda sun'iy intellektdan global foydalanish imkoniyati barcha sohalarda yangi o'zgarishlarni boshlab berdi. Xususan, siyosiy kommunikatsiyada ham sun'iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari yetarlicha qo'llanilmoqda. Butun dunyoda elektoratni jalb qilish, ularning saylovoldi xabardorligini oshirish, faktlarni tekshirish, tomoshabinlarning ijtimoiy tarmoqlardagi reaksiyalari tahlil qilish shular jumlasidan. "Masalan, AQShda Electronic Registration Information Center (ERIC) bir nechta shtatlar konsorsiumi bilan hamkorlik qilib, saylovchilarni ro'yxatga olish, avtomobil egaligi va boshqa rasmiy ma'lumotlar bazalarini tahlil qilish orqali saylovchilar ro'yxatini yangilashga yordam beradi." Mazkur tizim saylovchilar ro'yxatini doimiy tarzda yangilanib borishi bilan birga, boshqa rasmiy manbalar bilan solishtirish, saylovda ovoz beruvchilar xabardorligini oshirishga xizmat qiladi. Ammo, saylov jarayonlarida sun'iy intellektdan foydalanish bir qancha muammolarni ham o'rtaga tashlaydi. Mazkur muammolar Yevropa Ittifoqining «AI Act» (Sun'iy intellekt to'g'risidagi qonun) tahlilida aniq bayon etilgan. Unga ko'ra, saylov jarayonida sun'iy intellektdan foydalanish xavf darajalariga ajratiladi. Siyosiy kampaniyalar va saylovchilarga ta'sir qilish "yuqori xavfli" (high-risk) deb tasniflanadi. Bu jarayonni teledebatlar bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, siyosiy teledebatlar davomida qo'llaniladigan SI tizimlari - masalan, nomzodning hissiyotlarini tahlil qiluvchi yoki real vaqtda nutqini «yaxshilovchi» filtrlar «yuqori xavfli» deb hisoblanadi. Sababi bunda haqiqiylikning buzilishi ko'zga tashlanadi: Nomzodning tabiiy reaksiyasi SI tomonidan o'zgartirilsa, saylovchi «sun'iy obraz»ga ovoz beradi. Deepfake tahdidlar ham shular jumlasidan bo'lib, jonli efrida SI yordamida raqib nomzod haqida chalg'ituvchi ma'lumotlarni vizuallashtirish — elektoral etikaning eng qo'pol buzilishiga olib keladi. Shuningdek, yana bir jiddiy muammo bu sun'iy intellektga ega emaslik ya'ni ko'plab mamlakatlar sun'iy intellekt tizimlarini o'zi boshqarmaydi. Bu esa ularni iste'molchi darajasiga tushuradi va ma'lumotlarni boshqarish funksiyadan mahrum etadi. Bundan tahlillar xususan, xalqaro manbalarda ham alohida davlatlar sifatida tahlil qilinib, aniq keyslar keltiriladi. "Afrika davlatlarining aksariyati boshqa hududlarda ishlab chiqilgan texnologiyalarning iste'molchisi va foydalanuvchisidir. Saylov jarayonlari xorijiy raqamli vositalar va import qilingan texnologik qurilmalar asosida boshqariladi. Ushbu qaramlik saylov jarayonlarining zaifligini oshiradi. Shu bilan birga, texnologik qaramlik Afrika davlatlarini raqamli suverenitetni yo'qotish xavfi ostida qoldiradi, chunki ular tashqi texnologiya kompaniyalarining siyosatlariga bog'liq bo'lib qolmoqda." Umuman olganda, Afrika singari davlatlar SI bozorida texnologik qaramlikni boshdan kechirmoqda va bu o'z o'rnida davlat texnologiyalardan foydalana olishi ammo, ularning ichki barqarorligi, ustuvorligini boshqara olmasligini bildiradi. Agar teledebatlar misolida tahlil qilinsa, efir paytida ishlatiladigan fakt-cheking tizimi yoki saylovchi kayfiyatini tahlil qiluvchi SI xorijiy kompaniyaga tegishli bo'lsa, o'sha kompaniyaning maxfiylik siyosati va algoritmlari milliy xavfsizlik va elektoral mustaqillikka tahdid soladi. Bu holatda davlat o'z saylovlarining «texnologik egasi» emas, balki «foydalanuvchisi»ga aylanib qoladi.

"Mustaqil ma'lumotlarni himoya qilish, shaxsiy hayot daxlsizligi va media regulyatorlari,

ayrim hollarda esa AIga ixtisoslashgan regulyatorlar ham bu sohada muayyan vakolatlarga ega bo'lishi mumkin. Saylovni boshqarish organlari (EMB) odatda fuqarolarni saylovlarda qanday ishtirok etishlari haqida xabardor qilish uchun mas'uldir: kim ovoz berish huquqiga ega, qachon va qayerda ovoz berish bo'lishi, hamda saylov natijalarining e'lon qilinishi shular jumlasidandir. Bu vazifani bajarishda davlat organlari tobora ko'proq ijtimoiy tarmoqlardagi AI imkoniyatlaridan foydalanib, o'z xabarlarini ommaga yetkazmoqda. AI, shuningdek, strategik axborot siyosatini amalga oshirish, jamoatchilikni xabardor qilish kampaniyalari hamda onlayn tahlil va tadqiqotlar uchun ham qo'llanilishi mumkin. Biroq hozirgi paytda saylovchilarga aniq va ishonchli ma'lumot beradigan chatbotlarni yaratish hali ham texnologik jihatdan murakkab vazifa bo'lib qolmoqda." YUNESKO tomonidan taklif etilgan model shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda siyosiy teledebatlar va saylov jarayonlariga SI ni joriy etishda MSK, media regulyatorlari va kiberxavfsizlik markazlarining integratsiyalashgan monitoring tizimini yaratish zarur. Hujjatning 6-betida qayd etilganidek, chatbotlar va SIga asoslangan axborot tizimlari hali ham 'texnologik murakkablik' va 'noaniqlik' bosqichida ekanligi, bizdan siyosiy kommunikatsiyada ehtiyotkorlik tamoyili asosida ish tutishni talab etadi. Bu esa o'z navbatida, teledebattarda insoniy muloqotning ustuvorligini saqlab qolish uchun raqamli etikani qonuniy darajaga ko'tarish zaruratini tasdiqlaydi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, elektoral muloqot xususan teledebatlarda raqamli markirovka tizimini joriy etishni qonun bilan belgilash tavsiya etiladi. Ya'ni teledebatlar davomida sun'iy intellekt yordamida yaratilgan yoki tahrirlangan har qanday vizual/audio ma'lumot (statistik grafiklar, tahliliy modellar) ekranda «SI tomonidan ishlov berilgan» degan maxsus belgi bilan ko'rsatilishi majburiy etib belgilanishi lozim. Bu o'z o'rnida elektoratning ishonchini oshiradi va teledebatlarning shaffoflik darajasini belgilaydi. Shuningdek, Saylovlarni boshqarish organlari (MSK) va media regulyatorlari (Milliy kontent markazi, Milliy media birlashmasi) hamkorligida teledebatlarda qo'llaniladigan SI tizimlarini (masalan, savollar saralovchi algoritmlarni) etik auditdan o'tkazish tartibini ishlab chiqish. Bu algoritmlarning ma'lum bir siyosiy kuch foydasiga ishlashini oldini oladi. Yana bir muhim jihat bu sun'iy intellektdan foydalanish jarayonida inson nazoratini kuchaytirish yani SI tomonidan tayyorlangan chatbotlar yoki fakt-cheking natijalari efirga uzatilishidan oldin mutaxassislar tomonidan verifikatsiya qilinishini ta'minlash maqsadga muvofiq. Bu teledebatlarda dezinformatsiya xavfini kamaytiradi. O'zbekistonda Milliy raqamli etika kodeksini ishlab chiqish asnosida esa teledebatlarning ishonch darajasini oshiradi, siyosiy partiyalar va media-tuzilmalar uchun saylovoldi kampaniyalarida SIDan foydalanishning etik chegaralarini belgilovchi hujjat sifatida qo'llaniladi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli media muloqotni xalqaro tajriba asosida qayta ko'rib chiqish va milliy manfaatlar doirasida qayta ishlash zamon talabiga aylanib bormoqda. Teledebatlarning ishonchliligi, ommabopligi va shaffofligini sun'iy intellekt orqali kengaytirish demokratik saylovlarda axborot yaxlitligini ta'minlash, nomzodlar o'rtasida konstruktiv muloqot muhitini yaratish hamda saylovchilarning ongli ravishda siyosiy tanlovni amalga oshirishlari uchun mustahkam huquqiy-etik zamin yaratadi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

European Center for Development Policy Management (ECDPM). (2024). Artificial intelligence for electoral administration and management: A pathway for Africa-EU partnership (ETTG Policy Brief No. 7/2024). European Think Tanks Group. <https://ettg.eu/wp-content/uploads/2024/07/ETTG-Policy-Brief-AI-for-electoral-administration.pdf>

JPT Staff. (2024, March 13). European Parliament adopts landmark Artificial Intelligence Act. Journal of Petroleum Technology. <https://jpt.spe.org/european-parliament-adopts-landmark-artificial-intelligence-act>

Juneja, P. (2024). Artificial intelligence for electoral management. International Institute for Democracy and Electoral Assistance (International IDEA). <https://doi.org/10.31752/idea.2024.12>

UNESCO. (2025). Artificial intelligence and elections: A guide for electoral management bodies. UNESCO Digital Library. <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000393473>

Muallif haqida:

Davlatova Nafosat Furqat qizi – O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti tayanch doktoranti. nafosatdavlatova1998@gmail.com

POLITICAL TELEVISED DEBATES AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE: CHALLENGES OF DIGITAL ETHICS IN ELECTORAL COMMUNICATION

Nafosat Davlatova,
University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan

Abstract: This scientific article examines the impact of global digital transformation on electoral and pre-electoral processes, as well as emerging approaches applicable to the organization of televised debates and the expanding influence of artificial intelligence within these contexts. The methodological foundation of the study is based on UNESCO's 2025 fundamental guideline entitled "Artificial Intelligence and Elections." The analysis demonstrates that artificial intelligence is increasingly bypassing traditional media logic, replacing it with algorithmic logic, which signals the emergence of new risks in the field. These include the growing potential for disinformation during televised debates, the manipulation of candidates' images through deepfake technologies, and the erosion of established ethical standards.

Keywords: Televised debates, artificial intelligence, UNESCO, global transformation, algorithmic communication, disinformation, electoral communication

About the author:

Davlatova Nafosat – PhD student University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, nafosatdavlatova1998@gmail.com

VISUAL AND INTERACTIVE CAPABILITIES OF 3D MODELING IN ARTIFICIAL INTELLIGENCE SYSTEMS

Saodat Ismailova, 

University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan,

Abstract: This article analyzes the role of artificial intelligence (AI) technologies in the 3D modeling process and their application based on the Blender program. With the help of artificial intelligence, it is possible to increase the efficiency of automated modeling, texturing, animation, and other processes. The possibilities of the Blender program, methods of integrating AI models, and the advantages of this approach will be discussed.

Keywords: 3D modeling, artificial intelligence, Blender, neural networks, automation, generative models.

Currently, 3D modeling technologies are widely used in many areas, such as the film industry, video games, architecture, industrial design, virtual and augmented reality. The growing demand for digital visualization creates the need to make the processes of creating 3D models faster, more accurate, and more flexible. However, traditional 3D modeling processes are characterized by the need for complex technical knowledge, significant time and resource expenditure.

Artificial intelligence (AI) technologies play an important role in solving these problems. With the help of artificial intelligence-based algorithms, it is possible to automate modeling processes, quickly create the shape and structure of objects, and simplify texturing and animation processes. As a result, errors related to the human factor are reduced, and overall work efficiency is increasing.

In recent years, the Blender program, one of the open-source 3D modeling platforms, has been developing as a favorable environment for the integration of artificial intelligence technologies. The Blender program can be expanded based on the Python programming language, which allows you to implement neural networks, machine learning, and generative models in 3D modeling processes. In particular, processes such as automated modeling, intelligent texturing, motion prediction, and animation creation are reaching a new level with the help of artificial intelligence.

Therefore, the study and analysis of the integration of 3D modeling in artificial intelligence systems is one of the urgent scientific and practical tasks. This article, using the example of the Blender program, scientifically illuminates the integration of artificial intelligence technologies into 3D modeling processes, their capabilities, and advantages (Blender Foundation, 2023).

In the scientific literature, the issue of the integration of artificial intelligence and 3D modeling has been studied in various directions. Researchers emphasize the role of artificial intelligence in the automatic creation of geometric shapes, the optimization of complex models, and the creation of realistic visual effects. There are a number of scientific works on the generation of object forms based on neural networks and their matching with real-world data.

In some studies, methods for reconstructing 3D objects and improving their quality using machine learning algorithms have been proposed. These approaches are distinguished by their speed and accuracy compared to traditional modeling methods. Also, research on the automatic creation and improvement of 3D models based on generative adversarial networks (GAN) is widespread.

Scientific sources related to the Blender program show its advantages in integrating artificial intelligence technologies as an open-source platform. Some works highlight the possibilities of using neural networks in creating visual content through the Blender environment based on practical examples. However, in the available literature, insufficient attention is paid to the comprehensive integration of 3D modeling in artificial intelligence systems and its system analysis.

Therefore, this article is aimed at filling the existing scientific gap by studying the integration of artificial intelligence and 3D modeling based on a comprehensive approach using the example of the Blender program.

In this study, a number of software and methodological tools were used to study the

possibilities of integrating artificial intelligence technologies into 3D modeling processes. The Blender program with open source was chosen as the main modeling environment. This program is distinguished by its wide functionality, support for the Python programming language, and a convenient infrastructure for integrating artificial intelligence algorithms.

The research methodology was based on the method of comparative analysis. That is, automated approaches based on artificial intelligence were compared with traditional 3D modeling processes. The results of this comparison made it possible to determine the effectiveness of artificial intelligence technologies in 3D modeling processes. Also, during the experimental work, practical examples were developed based on models created in the Blender environment. Using these examples, the possibilities of applying the integration of artificial intelligence in real production and design processes were assessed.

3D modeling using artificial intelligence

Algorithms based on artificial intelligence can be used in the process of 3D modeling in the following areas:

1. Automated form creation: Automatic 3D form generation using Generative Adversarial Networks and Variation Autocrypt (Google AI, 2022).

2. Texturing and Creating Materials: Creating realistic materials and textures using neural networks (Intel, 2021)

3. Automation of the animation and skeletal system: Simulation of movements using artificial intelligence and optimization of the ossification process (NVIDIA, 2022)

4. Automatic segmentation of objects: separating scanned 3D models using AI and matching them to the scene.

5. Optimization of the rendering process: calculation of realistic lighting and effects based on physics based on AI (OpenAI, 2023).

Ways to use artificial intelligence in a blender

1. Automatic 3D modeling with AI

- OpenAI Point-E: an AI tool that generates 3D models from text (OpenAI, 2023).
- DreamFusion: Used to create 3D objects using text description (Peng et al., 2021).
- Nvidia GET3D: Generates 3D objects with a real appearance (Zhang et al., 2023)

2. Create texture and material with AI

- NVIDIA GauGAN: Creates realistic textures based on images or scratches.
- Stable Diffusion / DALL-E: Creating 2D textures, which can be applied through UV

Mapping in Blender.

Material Diffusion: Generating PBR materials using AI.

3. Automatic ossification and animation with AI

- Auto-Rig Pro: Creates an automatic bone marking system.
- DeepMotion: Records movements and adapts them to the skeletal system.
- Cascadeur: uses AI to create physically based animation.

4. AI rendering and light optimization

- Intel Open Image Denoise: Reduces noise resulting from rendering.
- Nvidia OptiX AI Denoiser: Improves render quality through fast and high-quality denoising.

- AI Light Baking: achieving realistic results by predicting lighting using AI.

5. AI plug-ins and add-ons for Blender

- Blender AI-Tools: Used for AI-based modeling and rendering.
- BlendTorch: allows PyTorch models to be used in Blender.
- Neuralangelo: Creating 3D models from simple pictures.

6. Use of artificial intelligence in Blender Add-ons

The following popular add-ons simplify the AI modeling process:

- Dream Textures - Automatic texture creation based on text using the Stable Diffusion model.

- AI Render - accelerate high-quality renders using AI.
- EbSynth for Blender - interpolation of animation between frames using AI.
- RetopoFlow - uses AI technology to simplify the Mash network and perform automatic retopologization.
- DeepFaceLab Add-on - changing faces and creating deepfake effects using AI.

As a result of the use of artificial intelligence technologies through add-ons in the Blender program, it was found that the efficiency of the 3D modeling process has significantly increased. In the research process, when comparing automated modeling methods with traditional approaches, an acceleration of the workflow, a reduction in the stages of model creation, and an improvement in the quality of the final product were observed. In particular, the processes of creating geometric shapes and texturing object surfaces were performed quickly and accurately based on artificial intelligence.

The use of artificial intelligence algorithms, along with increasing the visual realism of the model, served to reduce errors associated with the human factor. The results of the experiments showed that the models created using neural networks have high accuracy in representing complex shapes and structures. In addition, the possibilities of automatic prediction and smoothing of movements in animation processes increased work efficiency.

The obtained results show that the integration of artificial intelligence technologies into the Blender environment significantly optimizes the processes of 3D modeling. However, the knowledge and experience of specialists remain important for the effective application of these technologies. Therefore, the use of artificial intelligence should be considered not as a complete replacement of human creativity, but as a tool that supports it.

The research results show that the application of artificial intelligence technologies in the field of 3D modeling significantly simplifies traditional modeling processes and increases overall work efficiency. Algorithms based on artificial intelligence serve to reduce time and resource consumption through the automation of modeling, texturing, and animation processes, as well as to optimize the quality indicators of the final result.

The possibility of rapid creation of complex geometric shapes, increasing the level of visual realism, and improving animation processes through the integration of artificial intelligence models in the Blender software environment was revealed. The conducted analyses confirm the importance of artificial intelligence technologies as an auxiliary tool in the processes of 3D modeling. In this case, the combination of human creativity and the capabilities of artificial intelligence leads to effective results.

At the same time, when implementing artificial intelligence technologies, such factors as algorithm stability, the quality of training data, and the need for human control should be taken into account. In the future, the further development of artificial intelligence technologies is expected to form new scientific and practical directions of 3D modeling processes and serve the widespread introduction of innovative approaches in the field of design and digital content creation

References:

Blender Foundation. (2023). Blender AI tools and automation. Blender Documentation. <https://www.blender.org/docs>

Google AI. (2022). DreamFusion: Text-to-3D synthesis with diffusion models. Google AI Blog. <https://ai.googleblog.com/2022/09/text-to-3d-synthesis-with-diffusion.html>

Intel. (2021). Open Image Denoise: AI-based image denoising for rendering. Intel Software. <https://www.intel.com/open-image-denoise>

NVIDIA. (2022). AI-powered 3D model generation with GET3D. NVIDIA Developer Blog. <https://developer.nvidia.com/blog/get3d-ai-powered-3d-model-generation>

OpenAI. (2023, March 15). Point-E: Generating 3D models from text. OpenAI Blog. <https://openai.com/research/point-e>

Peng, B., Zhang, X., & Liu, Y. (2021). A survey on deep learning-based 3D shape generation and modeling. *Computers & Graphics*, 98, 1–20. <https://doi.org/10.1016/j.cag.2021.07.005>

Zhang, Y., Liu, M., & Wang, H. (2023). AI-powered automation in 3D content creation: A systematic review. *International Journal of Artificial Intelligence in Design*, 45(2), 56–78. <https://doi.org/10.1016/j.jaid.2023.03.004>

Shu bilan birga, O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida sun'iy intellektning zamonaviy yechimlariga asoslangan ilmiy ishlanmalar amalga oshirilmoqda. Masalan, katta ma'lumotlar tahlili orqali auditoriya ehtiyojlarini prognoz qilish, mashinali o'rganish yordamida kontentni personallashtirish, intellektual axborot monitoringi tizimlarini yaratish kabi yo'nalishlar media samaradorligini ilmiy asosda oshirish imkonini beradi.

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida ilmiy tadqiqotlarida milliy til korpuslarini shakllantirish, o'zbek tili uchun neyron tarjima, avtomatik referatlash va ovozdan matnga o'girish texnologiyalarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa milliy mediamakonini global raqamli muhitga ilmiy asosda integratsiya qilishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida media va sun'iy intellekt integratsiyasi bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar sun'iy intellektning ilmiy muammolarini aniqlash va ularga zamonaviy yechimlar taklif etishga qaratilgan kompleks ilmiy maktabni shakllantirmoqda. Ushbu anjuman esa mazkur ilmiy yutuqlarni xalqaro tajriba bilan boyitish va yangi tadqiqot yo'nalishlarini belgilash uchun muhim maydon bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt asosidagi texnologiyalar media sohasining texnologik modernizatsiyasida, kontent ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishda hamda auditoriya bilan interaktiv aloqalarni rivojlantirishda muhim strategik omil hisoblanadi. SI vositalari yordamida media mahsulotlarni yaratish, tahlil qilish va tarqatish jarayonlari yanada tezkor, aniq va shaxsiylashtirilgan tus olmoqda. Bu esa media tizimlarining samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur jarayonlar O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lib, media va sun'iy intellekt integratsiyasi oliy ta'lim tizimida yangi pedagogik va texnologik yondashuvlarni joriy etishni talab etadi. Universitetda media ta'lim yo'nalishlariga SI asoslari, ma'lumotlar tahlili, raqamli kontent ishlab chiqarish va algoritmik media jarayonlari bo'yicha kompetensiyalarni kiritish bo'lajak jurnalist va media mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligini zamonaviy talablar darajasiga olib chiqadi.

Shu bilan birga, media va sun'iy intellekt integratsiyasi ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish, innovatsion laboratoriyalar tashkil etish hamda amaliy loyihalar asosida ta'limni ishlab chiqarish bilan integratsiyalash imkonini beradi. Bu jarayon talabalarda nafaqat ijodiy, balki analitik fikrlashni ham shakllantirib, ularni raqamli media muhitida samarali faoliyat yuritishga tayyorlaydi.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt texnologiyalarini media ta'limiga tizimli joriy etish O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida innovatsion ta'lim muhitini shakllantirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda milliy media makonining intellektual salohiyatini oshirishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Abed, N., & Farrokhi, N. (2025). The role of artificial intelligence in media communications. *AI Technology in Media & Business Science*, 3(3), 45–60. <https://doi.org/10.61838/kman.aitech.3.3.3>

Mehmood, R. (Ed.). (2025). Journalism, media, and artificial intelligence: Let us define the journey (Editorial). *Journal of Media and Communication Studies*, 6(3), 122.

Nanz, A. (2025). AI in the newsroom: Does the public trust automated news? *Journal of Digital Journalism*, XX(X), 1–12.

Shao, Y. (2025). A review of the role of artificial intelligence in media content creation and trends. *Lifestyle Journal*. <https://doi.org/10.47172/2965-730X.SDGsReview.v5.n02.pe03971>

Muallif haqida:

Muratova Nozima Faxriddinovna - DcS, professor, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, nozimamuratova@gmail.com

PRACTICAL APPLICATIONS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN THE MEDIA SECTOR AND THEIR DEVELOPMENT TRENDS

Nozima Muratova,
University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan

Abstract: This article analyzes the practical applications of artificial intelligence–based technologies in the media sector and examines their development trends. The study highlights the role of AI technologies in content creation, data analysis, audience engagement, and the automation of media processes. It also explores the functional capabilities of recommendation systems, computer vision, natural language processing, and machine learning methods within the media ecosystem. The paper provides a scientific analysis of the significance of artificial intelligence in improving media product quality, optimizing production processes, and personalizing user experience. The research findings serve as an important methodological foundation for understanding digital transformation processes in the media industry and for developing innovative management decisions.

Keywords: artificial intelligence, media technologies, digital media, content generation, recommendation systems, computer vision, machine learning, media analytics, digital transformation, interactive media.

About the author:

Muratova Nozima Fakhridinovna – Doctor of Sciences (DSc), Professor, Vice Rector for Research and Innovation, University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, nozimamuratova@gmail.com

SUN'IY INTELLEKT VA KREATIV TEXNOLOGIYALARNING ZAMONAVIY TA'LIMDAGI ROLI: ETIK VA IJTIMOIIY YONDASHUV

Baxodirjon Mullajonov, 

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Bugungi raqamli jamiyatda sun'iy intellekt texnologiyalari ta'lim va axborot tizimlarining rivojlanishida muhim strategik omilga aylanmoqda. Mazkur maqolada sun'iy intellektning konseptual asoslari, mashinaviy va chuqur o'qitish modellari, katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash, tabiiy tilni qayta ishlash, kompyuter ko'rishi hamda generativ sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim jarayoniga integratsiyasi tahlil qilinadi. Shu bilan birga, kreativ texnologiyalar bilan uyg'unlashgan AI tizimlarining pedagogik samaradorligi, ijtimoiy ta'siri va etik muammolari yoritiladi. Tadqiqot davomida nazariy tahlil, holatlarni o'rganish va ekspert baholash usullaridan foydalanildi. Natijalar AI asosidagi yechimlar ta'lim sifatini oshirishi bilan birga, algoritmik xolislik, shaffoflik, ma'lumotlar xavfsizligi va inson nazorati bilan bog'liq masalalarga alohida e'tibor zarurligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, raqamli ta'lim, kreativ texnologiyalar, mashinaviy o'qitish, generativ AI, algoritmik xolislik, etik yondashuv, ma'lumotlar xavfsizligi

Raqamli transformatsiya jarayonlari ta'lim tizimida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirib, an'anaviy o'qitish modellaridan moslashuvchan va texnologiyaga asoslangan yondashuvlarga o'tishni taqozo etmoqda. Ushbu jarayonda sun'iy intellekt texnologiyalari bilimlarni qayta ishlash, baholash va individual o'quv trayektoriyalarini shakllantirish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda. Ayniqsa, kreativ texnologiyalar, gamifikatsiya elementlari hamda virtual muhitlar bilan uyg'unlashgan AI tizimlari ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. (Bishop, 2006)

Mazkur tadqiqot doirasida ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish, ta'lim sohasida sun'iy intellekt qo'llanilgan amaliy loyihalarni o'rganish, ekspertlar fikrini umumlashtirish hamda sifatli va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari mashinaviy o'qitish algoritmlariga asoslanib, ma'lumotlardan mustaqil ravishda bilim hosil qilish qobiliyatiga ega bo'lib, turli sohalarida samarali qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Klassifikatsiya va regressiya usullari bashorat qilish vazifalarini bajarishda qo'llanilsa, klasterlash algoritmlari ma'lumotlardagi yashirin strukturalarni aniqlashga xizmat qiladi. Chuqur o'qitish texnologiyalari esa ko'p qatlamli neyron tarmoqlar yordamida murakkab va katta hajmdagi ma'lumotlar bilan samarali ishlashni ta'minlaydi.

AI tizimlarining samaradorligi katta hajmdagi ma'lumotlarning sifati bilan bevosita bog'liq bo'lib, ma'lumotlarni tozalash va tahlil qilish jarayonlari yetarli darajada amalga oshirilmasa, modellar noto'g'ri yoki xolis bo'lmagan qarorlar qabul qilishi mumkin. Tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalari matnli axborotni chuqur tushunish, tahlil qilish va avtomatik tarzda yaratishga imkon bersa, kompyuter ko'rishi texnologiyalari tasvir va video ma'lumotlarni aniqlash hamda talqin etishda muhim rol o'ynaydi.

Generativ sun'iy intellekt texnologiyalari mavjud ma'lumotlar asosida yangi kontent yaratish imkonini berib, ta'lim va media sohalarida kreativ jarayonlarni jadallashtirmoqda. Ushbu texnologiyalar yordamida shaxsiylashtirilgan o'quv materiallari, vizual va interaktiv kontentlar ishlab chiqilib, o'quvchilarning qiziqishi va faolligi oshirilmoqda. Ta'lim jarayoniga AI asosidagi adaptiv platformalarning integratsiyasi talabalarning individual ehtiyojlari va bilim darajasiga mos o'qitishni ta'minlaydi, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar hamda AR/VR texnologiyalari esa nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirib, o'quv jarayonining interaktivligini kuchaytiradi.

Sun'iy intellekt tizimlarining ta'lim, boshqaruv va axborot muhitlariga keng miqyosda joriy etilishi bir qator murakkab etik va ijtimoiy masalalarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, algoritmik xolislik muammosi AI tizimlarida qo'llanilayotgan ma'lumotlar va modellarning ayrim ijtimoiy guruhlarga nisbatan adolatsiz yoki biryoqlama natijalar berish ehtimoli bilan bog'liq bo'lib, bu holat qaror qabul qilish jarayonlarida tenglik tamoyillarining buzilishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, algoritmlarning shaffofligi va ularning qanday tamoyillar asosida ishlashini tushuntirib

berish, ya'ni izohlanish darajasini oshirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. (Floridi, 2018)

Bundan tashqari, sun'iy intellekt tizimlari ko'pincha katta hajmdagi shaxsiy va sezgir ma'lumotlarga tayanib ishlashi sababli, ma'lumotlarni himoya qilish va ularning xavfsizligini ta'minlash masalalari alohida ahamiyat kasb etadi. Ruxsatsiz kirish, ma'lumotlarning sizib chiqishi yoki noto'g'ri qayta ishlanishi nafaqat texnik, balki huquqiy va ijtimoiy muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois, ma'lumotlarni anonimlashtirish, shifrlash hamda xavfsizlik protokollarini joriy etish AI tizimlarini ishlab chiqish va qo'llash jarayonining ajralmas qismi bo'lishi lozim.

Shuningdek, sun'iy intellekt tomonidan qabul qilinadigan qarorlar ustidan inson nazoratini saqlab qolish muhim etik talab sifatida qaraladi. AI tizimlari yordamchi vosita sifatida qaralib, yakuniy mas'uliyat inson zimmasida qolishi zarur. Bu yondashuv xatoliklar xavfini kamaytirish, ijtimoiy ishonchni mustahkamlash va texnologiyalardan mas'uliyatli foydalanishni ta'minlashga xizmat qiladi. Natijada, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etishda texnik samaradorlik bilan bir qatorda etik me'yorlar, huquqiy talablar va ijtimoiy manfaatlar uyg'unligini ta'minlash barqaror va ishonchli AI ekotizimini shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi. (Goodfellow, 2016)

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt va kreativ texnologiyalarni ta'lim hamda axborot tizimlariga integratsiyalash ta'lim sifatini oshirishda katta imkoniyatlar yaratadi. Biroq ushbu jarayon mas'uliyatli va etik yondashuv asosida amalga oshirilishi lozim. AI texnologiyalarini ilmiy asosda joriy etish, doimiy monitoring olib borish va uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish orqali barqaror va ishonchli zamonaviy ta'lim modeli shakllantiriladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- Bishop, C. M. (2006). Pattern recognition and machine learning. Springer.
Floridi, L., Cowls, J., Beltrametti, M., et al. (2018). AI4People-An ethical framework for a good AI society. *Minds and Machines*, 28(4), 689–707.
Goodfellow, I., Bengio, Y., & Courville, A. (2016). Deep learning. MIT Press.

Muallif haqida:

Mullajonov Baxodirjon Arabboyevich - O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, Mediadizayn kafedrasida katta o'qituvchisi, frastmorennn@gmail.com

THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND CREATIVE TECHNOLOGIES IN CONTEMPORARY EDUCATION: ETHICAL AND SOCIAL PERSPECTIVES

Baxodirjon Mullajonov,
University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan

Abstract: This paper examines the role of artificial intelligence technologies in the development of modern education and information systems. The study analyzes conceptual foundations of AI, machine learning, deep learning, big data processing, natural language processing, computer vision, and generative AI in combination with creative educational technologies. Ethical, social, and data protection challenges related to AI implementation are also discussed.

Keywords: artificial intelligence, digital education, creative technologies, machine learning, generative AI, algorithmic fairness, ethical approach, data security

About the author:

Mullajonov Baxodirjon Arabboyevich - Senior Lecturer, Department of Media Design, University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, frastmorennn@gmail.com

SUN'IY INTELLEKT VA O'QITUVCHINING PEDAGOGIK FAOLIYATI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIK

Muhammadyusuf Muxtoriddinov,
O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Sun'iy intellektning ta'lim sohasidagi ahamiyati va uning o'qituvchi ish uslubiga ko'rsatadigan ta'siri ushbu maqolaning asosiy tadqiqot obyekti hisoblanadi. Tadqiqotda raqamli vositalar orqali ta'limni samarali boshqarish yo'llari va o'qituvchi zimmasiga tushayotgan yangi vazifalar tahlil qilingan. Yakuniy xulosalar shundan iboratki, texnologik taraqqiyot o'qituvchini tizimdan siqib chiqarmaydi, aksincha, ta'limni optimallashtirish orqali uning pedagogik mahoratini yangi qirralarini ochishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: algoritmlashgan ta'lim, dars jarayoni optimallasuvi, virtual o'quv muhiti, pedagogik mahorat evolyutsiyasi, texnologik integratsiya

Yigirma birinchi asrning texnologik shiddati ta'lim arxitekturasida shunchaki o'zgarishlar emas, balki fundamental tizimli transformatsiyalarni keltirib chiqardi. Bugungi kunda raqamlashtirish paradigmasi an'anaviy o'qitish modellarini qayta formatlashni taqozo etmoqda; bu jarayonda aynan sun'iy intellekt (SI) tizimlari ta'limni modernizatsiyalashning asosiy drayveri sifatida markaziy o'ringa chiqmoqda. SI algoritmlarining o'quv jarayoniga integratsiyalashuvi nafaqat metodologik yangilanishga, balki o'qitish va bilim o'zlashtirish samaradorligini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi.

Hozirgi ta'lim muhitida shunchaki texnologik yangilanish emas, balki adaptiv o'qitish platformalari va intellektual tahlil tizimlari orqali amalga oshirilayotgan sifat o'zgarishlari ustuvorlik qilmoqda. Shaxsiylashtirilgan ta'lim mexanizmlarining amaliyotga kirib kelishi o'quvchi shaxsini markazga qo'yish imkonini berdi; endilikda tizim har bir ta'lim oluvchining kognitiv xususiyatlari va qiziqishlariga moslashish xususiyatiga ega. Mazkur transformatsiya o'quv jarayonining nafaqat elastikligini (moslashuvchanligini), balki uning empirik aniqligi va yakuniy samaradorligini ham yangi metrikalar asosida belgilab bermoqda.

Texnologik integratsiya natijasida o'qituvchining an'anaviy roli tubdan transformatsiyaga uchradi. Agar ilgari u axborot yetkazib beruvchi subyekt bo'lgan bo'lsa, hozirda murakkab ta'limiy loyihalarni boshqaruvchi va pedagogik tahlilni amalga oshiruvchi yetakchiga aylandi. Zamonaviy o'qituvchi faqatgina dars o'tmaydi, balki raqamli vositalar yordamida har bir o'quvchining ehtiyojini aniqlaydi va algoritmlar bergan natijalarni pedagogik prizma orqali tahlil qilib, o'quv jarayonini korektirovka qiladi.

Mazkur kontekstda sun'iy intellekt imkoniyatlari va pedagogik faoliyatning uzviy sintezi shunchaki texnik masala emas, balki fundamental ilmiy tadqiqot obyekti sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu deterministik bog'liqlikni tizimli tahlil qilish ta'lim samaradorligini oshirish bilan birga, pedagogik metodologiya va professional kompetensiyalarni bugungi raqamli reallik talablariga mos ravishda qayta modellashtirish imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, SI texnologiyalarining ta'lim arxitekturasidagi o'rni va ularning o'qituvchi faoliyatiga transformatsion ta'sirini o'rganish zamonaviy pedagogikaning eng dolzarb va istiqbolli yo'nalishlaridan biri sanaladi.

Tadqiqot davomida sohadagi dolzarb ilmiy adabiyotlar va xalqaro tajribalar atroflicha tahlilga tortildi. Axborot manbalarini tanlashda so'nggi yillarda chop etilgan nufuzli nashrlar, shuningdek, UNESCO va OECD kabi tashkilotlarning tahliliy xulosalariga alohida e'tibor qaratildi; bu esa mavzuning nazariy va amaliy jihatlarini kengroq ko'lamda yoritishga xizmat qildi.

Tadqiqotning metodologik asosi o'zaro bog'liq metodlar kombinatsiyasidan tashkil topgan bo'lib, tizimli yondashuv tamoyillariga tayanadi. Nazariy tahlil qilish orqali sun'iy intellekt va o'qituvchi o'rtasidagi metodologik bog'liqliklar aniqlab olindi hamda tadqiqot uchun muhim bo'lgan ilmiy tushunchalarga mualliflik nuqtayi nazaridan konseptual izoh berildi.

Izlanish doirasida qo'llanilgan qiyosiy-komparativ tahlil turli ilmiy maktablar va konseptual yondashuvlar o'rtasidagi farqli hamda mushtarak jihatlarni modellashtirish imkonini berdi. Bu jarayonda har bir nazariyaning ustuvorliklari va metodologik cheklovlari sinchiklab o'rganilib, sun'iy intellektning pedagogik transformatsiyadagi o'rni har tomonlama baholandi. Turli manbalardan olingan tahliliy ma'lumotlar tizimlashtirish metodi orqali mantiqiy ierarxiyaga

keltirildi. Mantiqiy umumlashtirish uslubi esa olingan xulosalarni yagona ilmiy paradigma doirasida birlashtirib, tadqiqotning konseptual modelini va mualliflik qarashlarini ilmiy jihatdan asosladi.

Shu bilan birga, adaptiv ta'lim platformalari va avtomatlashtirilgan baholash tizimlarining funksional hamda didaktik salohiyati tahlil markazida bo'ldi. Mazkur vositalar shunchaki texnik yordamchi emas, balki individual ta'lim trayektoriyalarini shakllantirish va kompetensiyalarni monitoring qilishdagi samaradorlik drayveri sifatida tadqiq etildi.

Sun'iy intellekt instrumentariysining pedagogik voqelikka transformatsion ta'siri o'qituvchi faoliyatining nafaqat tashqi shaklini, balki uning funksional-metodik arxitekturasini ham qayta modellashtirmoqda. Tadqiqot davomida pedagogning klassik «bilim uzatuvchi» (transmitter) maqomidan «ta'limiy jarayonlar moderatori» va «didaktik tahlilchi» darajasiga o'tishi ilmiy jihatdan identifikatsiya qilindi. Bu kabi ko'p qirrali yondashuv o'qituvchi zimmasidagi strategik qarorlar qabul qilish mas'uliyatini yangi mazmun bilan boyitib, SI imkoniyatlarini ta'limning elastikligi va natijadorligi prizmasi orqali kompleks tahlil qilishga zamin yaratdi.

Ilmiy izlanishlar shuni tasdiqlaydiki, intellektual tizimlarning ta'limga integratsiyalashuvi o'qitish samaradorligini sifatli mutatsiyaga uchratmoqda. Avtomatlashtirilgan diagnostika modellari o'quvchi bilimni statik baholashdan voz kechib, dinamik va individual o'quv traektoriyalarini shakllantirishga o'tish imkonini beradi. Natijada ta'lim jarayoni shunchaki axborot almashinuvi emas, balki aniq metrikalar va shaxsiylashtirilgan natijalarga yo'naltirilgan intellektual tizim ko'rinishini olmoqda.

Izlanishlarimiz shuni ko'rsatdiki, sun'iy intellekt o'qituvchini tizimdan siqib chiqarmaydi, balki uning kasbiy faoliyatiga yangi, yanada murakkabroq mazmun bag'ishlaydi. Pedagog endi shunchaki axborot yetkazuvchi emas, balki texnologik tavsiyalarni o'quvchi ehtiyoji va dars kontekstiga moslab chiquvchi «pedagogik filtr» vazifasini o'taydi.

Bunday sharoitda o'qituvchi zimmasidagi mas'uliyat ko'lami kutilmaganda ortadi: u SI bergan natijalarni didaktik nuqtayi nazardan tekshirishi va ularning ta'limiy qiymatiga baho berishi shart. Bu esa o'qituvchidan an'anaviy mahorat bilan birga, raqamli ekotizimda erkin harakat qila olish va algoritmlar bilan hamkorlik qilish ko'nikmasini talab qiladi. Oxir-oqibat, ta'lim samaradorligini texnologiyaning o'zi emas, balki o'qituvchining uni qanchalik professional va ongli ravishda boshqara olishi belgilaydi.

Sun'iy intellekt instrumentariysidan foydalanish jarayonida yuzaga kelishi muqarrar bo'lgan algoritmik cheklovlar va kognitiv xatarlar bugungi kunning yangi ontologik muammosi sifatida namoyon bo'lmoqda. Algoritmning ma'lumotlarni interpretatsiya qilishdagi subyektivligi hamda shaxsiy axborotlarning daxlsizligi masalasi tizimning etik-huquqiy asosi hali to'liq shakllanmaganini ko'rsatadi. Eng asosiysi, texnologik determinizmga haddan tashqari moyillik pedagogik aloqalarning mexanizatsiyalashuviga va ta'limning insoniy mohiyati chetga surilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Shundan kelib chiqib, SI tizimlarini ta'limga integratsiya qilish shunchaki texnik adaptatsiya emas, balki qat'iy pedagogik-etik filtrlar va nazorat mexanizmlari asosida amalga oshirilishi lozim. Ta'limning samaradorligi faqatgina algoritmlar tezligi bilan emas, balki ularning pedagogik mas'uliyat va insonparvarlik me'yorlari bilan qay darajada uyg'unlashgani bilan o'lchanadi. Ushbu tadqiqot tasdiqlaydiki, raqamli yechimlar o'qituvchini tizimdan siqib chiqarmaydi, balki uning metodologik bazasini boyitib, ta'limni yanada ilmiy asoslangan va tizimli ekotizimga aylantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotimizning fundamental xulosasi shundan iboratki, sun'iy intellekt pedagogik makonda o'z-o'zini boshqaruvchi mustaqil subyekt emas, balki o'qituvchi intellektning kognitiv kengaytmasi hamda uning metodik arsenalini boyituvchi strategik instrument vazifasini o'taydi. Pedagog endilikda shunchaki ma'lumot beruvchi emas, balki SI tomonidan generatsiya qilingan tahliliy ma'lumotlar oqimini didaktik filtrdan o'tkazuvchi va ularni insonparvarlik tamoyillari asosida hayotga tatbiq etuvchi bosh arxitektor sifatida gavdalanadi. Binobarin, o'qituvchi zimmasidagi mas'uliyat raqamli tahlilni pedagogik kontekst bilan sintez qilish, texnologik yechimlarni etik-me'yoriy qoliplarga solish va ta'limning ma'naviy mohiyatini saqlab qolish kabi meta-kompetensiyalar bilan yanada murakkablashadi.

Kelajak ta'limining arxitekturasi sun'iy intellektni qanday qabul qilishimizga emas, balki uni qanchalik mas'uliyatli va bosqichma-bosqich tizimlashtirishimizga bog'liq bo'lib qoladi. Bugun pedagoglarning metodik tayyorgarligini mutlaqo yangi raqamli paradigma asosida

qayta ko'rib chiqish, SI bilan ishlashning axloqiy va huquqiy mexanizmlarini institutsional darajada mustahkamlash hayotiy zaruriyatdir. Faqatgina innovatsiyalar shiddati bilan pedagogik mas'uliyat o'rtasidagi mantiqiy muvozanat saqlangan taqdiridagina, sun'iy intellekt ta'lim tizimini mexanizatsiyalashgan vositadan emas, balki uning insonparvarlik mohiyatini boyituvchi samarali va barqaror resursga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Abduyev, S. (2025). Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim metodikasida qo'llanilishi va o'qituvchi kompetentligiga ta'siri. *Maktabgacha va Maktab Ta'limi Jurnal*. <https://doi.org/10.5281/zenodo.17075319>

Alashwal, M. (2024). Empowering education through AI: Potential benefits and future implications for instructional pedagogy. *PUPIL: International Journal of Teaching, Education and Learning*. <https://doi.org/10.20319/ictel.2024.201212>

Baxridinovich Bekpulatov, X. (2025). Ta'lim tizimida sun'iy intellektdan foydalanish: muammolar va istiqbollari. *Educational Research in Universal Sciences, ERU Studies*.

Ghimire, A., Prather, J., & Edwards, J. (2024). Generative AI in education: A study of educators' awareness, sentiments, and influencing factors. [Preprint]. arXiv. <https://arxiv.org/abs/2403.15586>

Karshiyeva, D. U. (2025). Sun'iy intellekt va uning ta'lim jarayonida qo'llanilishi. Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari.

Khattak, W., & Naz, R. (2025). Integrating human pedagogy and artificial intelligence in teaching practices. *Innovative Research Journal of Education*, Article 163. <https://doi.org/10.62497/irjed.163>

Maulana, A. K. (2025). Artificial intelligence in education: Revolutionizing teaching and learning. *Journal of Asian Primary Education*, 1(1), Article 1207. <https://doi.org/10.59966/joape.v1i1.1207>

Nisar, A., Bashir, I., & Ahmad, A. (2023). Experience of academia with artificial intelligence as adaptive pedagogy. *Pakistan Social Sciences Review*. [https://doi.org/10.35484/pssr.2023\(7-III\)53](https://doi.org/10.35484/pssr.2023(7-III)53).

Saira, S., Qayyoom, H., Ali, A., & Jahan, M. (2025). Digital media and artificial intelligence in education: A smart pedagogy approach. *Metallurgical and Materials Engineering*, Article 1377. <https://doi.org/10.63278/1377>

Muallif haqida:

Muxtoriddinov Muhammadyusuf Temirxon o'g'li - O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, mmuxtoriddinov@gmail.com

THE INTERRELATIONSHIP BETWEEN ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND TEACHERS' PEDAGOGICAL PRACTICES

Muhammadyusuf Muxtoriddinov,
University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan

Abstract: This study scrutinizes the pivotal role of Artificial Intelligence (AI) within the educational paradigm and its transformative impact on pedagogical methodologies. The research delves into the mechanisms of efficient educational management through digital instruments, while concurrently evaluating the evolving professional responsibilities imposed upon educators. The ultimate findings posit that technological progression does not marginalize the teacher; rather, it serves as a catalyst for optimizing educational delivery and unlocking unprecedented dimensions of pedagogical mastery

Keywords: algorithmic education, optimization of the teaching process, virtual learning environment, evolution of pedagogical skills, technological integration

About the author:

Muxtoriddinov Muhammadyusuf Temirxon o'g'li - University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, Tashkent, Uzbekistan, Email: mmuxtoriddinov@gmail.com

THE IMPORTANCE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND NEURAL NETWORKS IN MODERN INFORMATION SYSTEMS

Durdona Nortoyeva,^{id}
Uzbekistan University of Journalism and Mass Communications

Annotatsiya: This dissertation examines the role and significance of artificial intelligence and neural network technologies in modern information society. The study analyzes the adaptive capabilities of artificial neural networks based on biological intelligence principles in studying, generalizing, and solving complex problems where traditional algorithmic approaches are ineffective. Special attention is given to the concept of artificial intelligence, its types, and the fundamental paradigms of machine learning. The practical application of neural networks and machine learning methods is substantiated as an effective tool for processing large volumes of data and automating decision-making processes

Kalit so'zlar: artificial intelligence, neural networks, machine learning, deep learning, supervised and unsupervised learning, biological model, data analysis, intelligent systems.

Today, in the age of advanced technologies, artificial intelligence and neural network technologies are of crucial importance in the development of society. Artificial neural networks are actively used to solve complex problems in situations where traditional algorithmic solutions are ineffective or impractical. Modern computers are capable of performing various calculations dozens of times faster than the human brain.

However, a number of non-computational tasks-although seemingly insignificant to humans-remain extremely challenging for computer technologies. Human abilities such as associative data storage, context-aware learning, generalization, and information processing remain unparalleled even for modern supercomputers. The primary goal of designing artificial neural networks is to create a computational structure or algorithm that functions in accordance with the principles of natural intelligence. Neural networks are characterized by several key features.

Artificial intelligence (AI) and neural networks (NN) are two highly significant concepts in cyber-physical systems. Each is designed to receive, analyze, and retain large amounts of data while executing specific tasks. However, they differ in structure and practical applications. Artificial intelligence (AI) is a broad term that describes the ability of computers to learn and perform tasks like humans, such as communicating, reasoning, thinking, and making recommendations. It is widely used in security, robotics, mathematics, medicine, education, and many other fields. Practical applications of AI include data mining and analysis, machine learning, process automation, and a variety of other uses. For example, AI technologies are applied in email filtering, optimizing internet searches, financial and stock market analysis, and smart assistant systems.

In artificial intelligence systems, two fundamental concepts are primarily distinguished:

1. Neural networks.
2. Machine learning.

A neural network, in essence, is a mathematical model that represents the activity of the human biological neural network in a simplified form, as well as its implementation as a software-based computational model.

Machine learning is a collection of specialized algorithms that form the foundation of neural networks' self-learning capability based on data obtained from experience. In turn, neural networks (NNs) are specialized interconnected structures considered in biological and artificial intelligence systems. Neural networks based on biological nervous systems are used to collect, analyze, and manage large amounts of data. In other words, neural networks represent a biological model of artificial intelligence implemented through algorithms, hardware, and software systems. They are widely used in image recognition, speech classification, handwriting recognition, machine translation, education, and other fields. In artificial intelligence systems, two main concepts are distinguished:

Artificial Intelligence (AI). This type consists of specialized software and hardware systems designed for a specific field. For example, a computer program can beat the world chess

champion, but it is only capable of performing that specific task.

Artificial General Intelligence (AGI). This category includes systems whose intellectual capabilities are comparable to human intelligence. AGI systems can perform tasks that people can perform, including obtaining information, obtaining relevant data from information flows, comparing alternative solutions, rapid learning, and utilizing accumulated experience.

Artificial Superintelligence (ASI). This type refers to systems that are superior to human intelligence in almost all areas, such as scientific discoveries, general knowledge, and social skills.

Machine learning is a subfield of artificial intelligence that studies various ways of creating learning algorithms. Learning algorithms are algorithms that adapt based on input data and desired results. Machine learning is a broad field, because different interpretations of the concept of «learning» lead to different and meaningful results. Among its many paradigms and approaches, artificial neural networks stand out as one of the most prominent trends. Machine learning involves training models using artificial intelligence systems to learn from data. Several machine learning approaches are widely used:

1. **Controlled learning:** In this method, labeled data sets consisting of input-output pairs are presented to the model. The model learns patterns from educational data and is subsequently tested in new data. It is widely used in classification, forecasting, and regression tasks.

2. **Unsupervised Learning:** In this approach, unlabeled data is provided without predefined outcomes. The model learns to identify structures, patterns, and relationships within the data, often used for clustering and exploratory analysis.

3. **Semi-Supervised Learning:** This method combines elements of supervised and unsupervised learning, enabling efficient learning when labeled data is limited.

4. **Reinforcement Learning:** In this approach, the model learns by performing actions and receiving feedback in the form of rewards or penalties. The objective is to maximize cumulative rewards and achieve optimal performance.

5. **Transfer Learning:** This method allows knowledge gained from one model or task to be transferred to another, enabling faster and more efficient learning for related tasks.

6. **Deep Learning:** This approach utilizes deep artificial neural networks and is widely applied in image analysis, text classification, automatic translation, and other complex tasks. It enables hierarchical feature learning through multiple layers.

These machine learning methods are applied across various domains and tasks, each possessing its own advantages and limitations. When selecting a learning approach, additional criteria and requirements must also be considered.

The consistent development of artificial intelligence, neural networks and machine learning technologies is of great strategic importance for the development of intelligent systems, automation of data processing and increasing the efficiency of decision-making in several sectors

References:

Géron, A. (2022). *Hands-on machine learning with Scikit-Learn, Keras & TensorFlow*. O'Reilly Media.

Goodfellow, I., Bengio, Y., & Courville, A. (2016). *Deep learning*. MIT Press.

Haykin, S. (2009). *Neural networks and learning machines* (3rd ed.). Pearson.

Mitchell, T. M. (1997). Does machine learning really work?. *AI magazine*, 18(3), 11-11.

Russell, S., & Norvig, P. (2021). *Artificial intelligence: A modern approach* (4th ed.). Pearson.

Schmidhuber, J. (2015). Deep learning in neural networks: An overview. *Neural Networks*, 61, 85–117. <http://dx.doi.org/10.1016/j.neunet.2014.09.003>

Sutton, R. S., & Barto, A. G. (2018). *Reinforcement learning: An introduction* (2nd ed.). MIT Press.

Muallif haqida:

Nortoyeva Durдона Raxmatillayevna - Uzbekistan University of Journalism and Mass Communications, Teacher, Department of Media Design, Tashkent, Uzbekistan, Email: oripjonovadurdona@gmail.com

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANLARINI O'QITISHDA GENERATIV SUN'YIY INTELLEKT TIZIMLARIDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOSLIKLARI: AFZALLIKLARI VA XAVF-XATARLARI

Shohruh Raximov, 

O'zbekiston jurnalistikasi va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Annotatsiya: Maqolada axborot texnologiyalari fanlarini o'qitishda generativ sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanish masalalari tahlil qilinadi. GenAI texnologiyalarining pedagogik afzalliklari, o'quv jarayoniga ta'siri va yuzaga keladigan xavf-xatarlar ilmiy manbalar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, generativ AI, axborot texnologiyalari, ta'lim, dasturlash

So'nggi yillarda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim tizimiga, xususan axborot texnologiyalari (AT) fanlarini o'qitish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, generativ sun'iy intellekt (GenAI) tizimlari - matn, kod, rasm, audio va video generatsiya qila oladigan modellar - o'quv jarayonini tashkil etishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. ChatGPT, Gemini, Claude, Copilot, Adobe Firefly kabi tizimlar nafaqat o'quvchilar, balki o'qituvchilar faoliyatida ham faol qo'llanila boshladi.

Axborot texnologiyalari fanlari algoritmlash, dasturlash, ma'lumotlar bazasi, kibernetika, sun'iy intellekt asoslari kabi murakkab va tez yangilanib boradigan bilimlarni o'z ichiga oladi. An'anaviy o'qitish usullari bu sohada dinamikani to'liq qamrab olishda ba'zan yetarli bo'lmaydi. Shu nuqtai nazardan, GenAI tizimlaridan foydalanish ta'lim sifatini oshirish, individual yondashuvni ta'minlash va o'quvchilarning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Biroq, generativ sun'iy intellektidan foydalanish bilan bog'liq xavf-xatarlar ham mavjud. Akademik halollik, mualliflik huquqi, ma'lumotlar ishonchliligi va texnologik qaramlik kabi masalalar jiddiy e'tibor talab qiladi. Ushbu maqolada axborot texnologiyalari fanlarini o'qitishda GenAI tizimlaridan foydalanishning o'ziga xos jihatlari, ularning afzalliklari va xavf-xatarlari tahlil qilinadi.

Mazkur tadqiqotda sifatli tahlil (qualitative analysis) usuli qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida ochiq va ishonchli manbalardan olingan ilmiy maqolalar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va yetakchi texnologik kompaniyalarning rasmiy hujjatlari o'rganildi. Xususan, quyidagi manbalar asos qilib olindi:

- UNESCO va OECDning sun'iy intellekt va ta'limga oid hisobotlari;
- Google DeepMind, OpenAI, Microsoft va Adobe'ning rasmiy texnik hujjatlari;
- IEEE va Springer nashrlaridagi ilmiy tadqiqotlar;
- McKinsey va Deloitte tahliliy hisobotlari.

Tadqiqot doirasida GenAI tizimlarining AT fanlarini o'qitishdagi qo'llanilishi quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tahlil qilindi:

- O'quv jarayonini qo'llab-quvvatlash;
- Dasturlash va algoritmik fikrlashni rivojlantirish;
- Baholash va individual yondashuv;
- Xavf va cheklovlar.

Generativ sun'iy intellekt tizimlari axborot texnologiyalari fanlarini o'qitishda ko'p funksiyali vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Ular virtual yordamchi, murabbiy va maslahat beruvchi rolini bajaradi. Masalan, dasturlashni o'rganayotgan talaba GenAI yordamida kod yozish misollarini ko'rishi, xatolarini tahlil qilishi va muqobil yechimlarni o'rganishi mumkin.

OECD hisobotida ta'kidlanishicha, sun'iy intellekt texnologiyalari ta'limda moslashuvchan o'rganish muhitini yaratishga xizmat qiladi va o'quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olish imkonini beradi.

AT fanlarining asosiy yo'nalishlaridan biri - dasturlash. GenAI tizimlari dasturlash tillarini o'rganishda samarali yordamchi bo'la oladi. Ular kod sintaksisini tushuntiradi, algoritmlarni bosqichma-bosqich sharhlaydi va optimallashtirish bo'yicha tavsiyalar beradi.

Microsoft tomonidan taqdim etilgan GitHub Copilot vositasi real vaqt rejimida kod

yoziqshda yordam berib, o'quvchilarning algoritmik fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bunday vositalar bilan ishlagan talabalar murakkab masalalarni tezroq tushunadi, biroq ularni tanqidiy fikrlashga o'rgatish zarur.

GenAI tizimlari o'qituvchilar uchun ham muhim yordamchi hisoblanadi. Ular: dars ishlanmalari va test savollarini yaratish, murakkab mavzularni soddalashtirib tushuntirish, o'quv materiallarini yangilab boorish kabi vazifalarni yengillashtiradi.

UNESCO ta'kidlaganidek, sun'iy intellekt o'qituvchini almashtirmaydi, balki uning pedagogik imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, o'qituvchi GenAI natijalarini tanqidiy baholash ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim.

GenAI tizimlarining muhim afzalliklaridan biri — personalizatsiya. Har bir o'quvchining bilim darajasi, o'rganish sur'ati va qiziqishlariga mos kontent yaratish imkoniyati mavjud. Bu ayniqsa, AT fanlarida muhim, chunki o'quvchilar tayyorgarlik darajasi keskin farqlanishi mumkin.

McKinsey hisobotlariga ko'ra, shaxsiylashtirilgan ta'lim yondashuvi o'quvchilar samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Afzalliklar:

GenAI tizimlaridan foydalanishning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- o'rganish jarayonining tezlashuvi;
- murakkab tushunchalarni tushunishni yengillashtirish;
- o'quvchilarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish;
- o'qituvchi yuklamasini kamaytirish.

Xavf-xatarlar

Shu bilan birga, bir qator xavf-xatarlar mavjud:

- akademik halollik muammosi (tayyor javoblardan foydalanish);
- texnologik qaramlik;
- noto'g'ri yoki eskirgan ma'lumotlar;
- mualliflik huquqi va etik masalalar.

Deloitte va UNESCO hisobotlarida sun'iy intellektidan foydalanishda aniq qoidalar va mas'uliyatli yondashuv zarurligi qayd etiladi.

Axborot texnologiyalari fanlarini o'qitishda generativ sun'iy intellekt tizimlaridan foydalanish katta pedagogik salohiyatga ega. Ular o'quv jarayonini zamonaviylashtiradi, individual yondashuvni ta'minlaydi va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Biroq, bu texnologiyalarni ongli, tanqidiy va etik me'yorlarga asoslangan holda qo'llash muhim ahamiyatga ega. GenAI tizimlari o'qituvchining o'rnini bosuvchi emas, balki uning samarali yordamchisi sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

Abduxamidova, M. (2025). Ta'lim boshqaruvida sun'iy intellekt: imkoniyatlar, cheklovlar va kelajak yo'nalishlari. *Advances in Science and Education*.

Bernstein, S., Rahman, A., Sharifi, N., Terbish, A., & MacNeil, S. (2025). Beyond the benefits: A systematic review of the harms and consequences of generative AI in computing education. *arXiv*. <https://arxiv.org/abs/2510.04443>

Elnaffar, S., Rashidi, F., & Abualkishik, A. Z. (2025). Teaching with AI: A systematic review of chatbots, generative tools, and tutoring systems in programming education. *arXiv*. <https://arxiv.org/abs/2510.03884>

Hamrayeva, G. (2025). Zamonaviy AI texnologiyalarining elektron pedagogika fanini o'qitishdagi o'rni. *Ilmiy Yangiliklar va Intellektual Tadqiqotlar*.

Madraximov, A. A. (2026). Ta'limda generativ sun'iy intellekt va akademik halollik paradigmasi. *Ilmiy Tadqiqotlar va Yangi Olam*, 2(1), 314–323.

Mamatova, D. (2024). Chet tilini o'rgatishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari. *Iqtisodiy Taraqqiyot va Tahlil*, 2(9), 145–151. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss9-pp145-151>

Najmetdinova, N. S. (2025). Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni qo'llashning ilmiy-asosiy farqlari va tahlili. *Digital Transformation and Artificial Intelligence*.

Quinn, E. V., & Lin, J. W. (2025). Generative artificial intelligence in educational contexts: A systematic review of opportunities, challenges, and ethical implications. *International Research*

Journal of Advanced Engineering and Technology. <https://doi.org/10.55640/...>

Toshpo'latova, D., Hoshimova, N., Ma'mirov, M., & Donoyev, S. (2024). Sun'iy intellekt va ta'lim. Journal of Universal Science Research, 2(10).

Yan, L., Sha, L., Zhao, L., Li, Y., Martinez-Maldonado, R., Chen, G., ... Gašević, D. (2023). Practical and ethical challenges of large language models in education: A systematic scoping review. arXiv. <https://arxiv.org/abs/2303.13379>

Muallif haqida:

Raximov Shohruh Ikromjon o'g'li - O'zbekiston jurnalistikasi va ommaviy kommunikatsiyalar universitetining "Mediadizayn" kafedrasida o'qituvchisi Email: Shohruxraximov092@gmail.com

**SPECIFIC FEATURES OF USING GENERATIVE ARTIFICIAL
INTELLIGENCE SYSTEMS IN TEACHING INFORMATION
TECHNOLOGY SUBJECTS: ADVANTAGES AND RISKS**

Shohruh Rakhimov,
University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan

Abstract: This thesis analyzes the relationship between the phenomena of antonymy and antithesis from linguistic and stylistic perspectives. Antonyms are examined as lexical phenomena in language, while antithesis is considered as a figurative device in speech. Their similarities and differences are illustrated with examples. Based on materials from Uzbek, Russian, and Turkic languages, the study explores types of antonyms, their contextual usage, and their significance as a means of enhancing expressiveness in literary speech.

Keywords: artificial intelligence, generative AI, information technology, education, programming

About the author:

Rakhimov Shohruh Ikromjon o'g'li - Lecturer, Department of Media Design, University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan, Email: Shohruxraximov092@gmail.com

РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ПОВЫШЕНИИ ИНКЛЮЗИВНОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ И МЕДИАПРОСТРАНСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

Фируза Расмухамедова,^{id}

Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана

